

Singapur Xalqaro Arbitraj Markazining Arbitraj Nizomlari
SXAM Nizomlari 6-nashr, 1-avgust, 2016 (PDF formatida)

1- Qollanilishi va sharhi

1.1

Taraflar da'volarini SXAM arbitraj (hakamlik) sudiga yoki SXAM nizomlari asosida hakamlik uchun yuborish to'g'risida kelishib olgan bo'lsa, taraflar da'vosi hakamligi quyidagi Nizomlar asosida SXAM tomonidan boshqarilishi va o'tkazilishi haqida kelishib olgan deb hisoblanadi.

1.2

Ushbu Nizomlar 2016 yil 1 avgustdan kuchga kiradi va taraflar o'rasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, ushbu sanada yoki undan kegin boshlangan barcha hakamlikaj da'volariga nisbatan qo'llaniladi.

1.3

Ushbu Nizomlarda:

"Qaror" qisman, boshlang'ich yoki yakuniy qarordir, shuningdek Favqulodda hakamning qarori hisoblanadi;

"Sud qomitasi" kamida ikki nafar a'zodan iborat bolib prezident tomonidan tayinlangan (prezidentni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan) qo'mitadir;

"Sud" SXAM hakamlik (arbitraj) sudi degan ma'noni anglatadi va Sud Qomitasini o'z tarkibiga kiritadi;

"Favqulodda hakam" 1-ilovaning 3-bandiga ko'ra tayinlangan hakamni anglatadi;

"Amaliy Korsatmalar" Kotib tomonidan vaqtি-vaqtি bilan ushbu Nizomlarni to'ldirish, tartibga solish va amalga oshirish uchun chop e'tilgan ko'rsatmalarni anglatadi;

"Prezident" sudning raisi shuningdek vitse-prezident va Kotibni anglatadi;

"Kotib" sudning kotibini anglatadi va har qanday Kotib o'rribosarini o'z ichiga oladi;

"Nizomlar" Singapur Xalqaro Arbitraj Markazining hakamlik Nizomlarini anglatadi (6-nashr, 2016 yil 1-avgust);

"SXAM" - Singapur Xalqaro arbitraj markazi; va

"Tribunal" yagona Arbitr (hakam) yoki birdan ortiq arbitr (hakam) saylangan hollarda barcha Arbitrlarni (hakamlarni) o'z ichiga oladi.

Ushbu Da'vomdagi har bir isim jinsi betaraf deb tushuniladi. Har qanday alohida isim(lar)ga tegishli sharoitda ko'plikda murojaat qilinishi tushuniladi.

2-Ogohlantirish va Muddatlarini hisoblash

2.1

Ushbu Nizom maqsadlari uchun har qanday ogohnoma, xabar yoki taklif yozma shakilda bolishi kerak. Har qanday ogohnoma, xabar va takliflar shahsan, pochta yoki kuryerlik xizmati orqali topshirilishi yoki har qanday elektron aloqa (shu jumladan elektron pochta va faksimil), yoki yetkazib berilganiligi haqida tasdiq beruvchi boshqa barcha vositalar bilan yetkazilishi mumkin. Har qanday ogohnoma, xabar yoki taklif quyidagi hollarda yetkazib berilgan deb hisoblanadi: (i) shaxsan yoki qabul qiluvchi shahsning vakolatli vakiliga topshirilganda; (ii) yashash manzili, ish joyiga yoki maxsus belgilangan manzilga yetkazib berilganda; (iii) taraflar orasida kelishilgan har qanday manzilga yetkazib berilganda; (iv) taraflarning oldingi munosabatlari tajribasiga kora ; yoki (v) agar oqilona harakatlardan kegin qabul qiluvchi yuqoridagi manzillarning hech birida mavjud bolmasa, qabul qiluvchi shahsning oxirgi ma'lum manziliga yoki ish joyiga yetkazib beriladi.

2.2

Har qanday Ogohnoma, xabar yoki taklif 2.1-nizomga asosan topshirilgan kundan boshlab qabul qilingan hisoblanadi.

2.3

Ushbu Nizomga binoan har qanday muddatni hisoblash uchun, har qanday muddat, ogohnoma, xabar yoki taklif qabul qilingan kunning ertasi kundan boshlanishi kerak. Agar Kotib yoki Tribunal boshqacha qaror qabul qilmasa, ushbu Nizomga binoan har muddat Singapurning Standart vaqtiga (GMT +8) bilan hisoblanadi.

2.4

Ushbu Nizomga binoan, Qabul qilinish joyida dam olish kunlari ham har qanday muddatni hisoblash jarayonida hisobga olinishi kerak. Agar ushbu Nizomning 2.1-moddasiga asosan har qanday muddatning so'nggi kuni qabul qilinish joyida dam olish kuni bo'lsa, bu muddat kegingi ish kunigacha uzaytiriladi.

2.5

Taraflar Kotibga hakamlik muhokamasiga taalluqli har qanday ogohnoma, xabar yoki taklifning nusxasini topshiradi.

2.6 Agar ushbu Nizomda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Kotib ushbu Nizomda nazarda tutilgan har qanday muddatni istalgan vaqtgacha uzaytiradi yoki qisqartirishi mumkin.

3-Hakamlik Muhokamasi Ogohnomasi

3.1

Ushbu Nizomga muvofiq, ("Da'vogar") muhokamani boshlashni istagan taraf hakamlik sudi Kotibiga murojatnama yuboradi va bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a. Da'vo hakamlik sudida korib chiqilishi uchun ariza
- b. muhokamaga tarafdar bo'lgan shaxslarning va mavjud bo'lsa ularning vakillarining, familiyasi, manzili, telefon raqamlari, faks raqamlari va elektron pochta manzili;
- c. tegishli hakamlik bitimi haqida malumot va hakamlik bitimining nusxasi;
- d. Da'voning kelib chiqishiga sabab bolgan shartnomaga yoki boshqa hujjatning nusxasi haqida ma'lumot (masalan Halqaro investitsiyalar shartnomasi) va imkon bolsa bu shartnomaning nushasi va ilovalari havola e'tiladi;
- e. Da'voning mazmuni va holatini tavsiflovchi qisqacha bayonnomma, shuningdek barcha talablar va imkon bor joyida da'vogar dastlabki talab qilayotgan miqdor;
- f. taraflarning oldindan hakamlik muhokamasida kelishib olgan yoki da'vogar tal'ab qilmoqchi bo'lgan har qanday masalalar bayonnomasi;
- g. Agar hakamlik bitimida belgilanmagan bo'lsa, hakamlar soni uchun taklif;
- h. Agar taraflar tomonidan oldindan o'zaro kelishib olinmagan bo'lsa, hakamlik bitimida uchta Hakam nazarda tutilgan bolsa ushbu Hakamlar nomzodi, yoki hakamlik bitimida yagona Hakam tomonidan da'voni ko'rib chiqishi nazarda tutilgan bo'lsa; yagona Hakam uchun nomzod taklifi,
- i. amaldagi qonunlarga nisbatan har qanday izoh;
- j. Hakamlik tiliga taalluqli har qanday izoh; va

k. Ushbu Nizmoga asosan, da'voga taaluqli majburiy tolovni amalga oshirish

3.2

Hakamlik Muhokamasi Ogohnomasi ushbu da'voning 20.2 bandida eslatib otilgan da'vo arizasini ham o'z ichiga olishi mumkin.

3.3

Hakamlik Muhokama Ogohnomasi muhokama Kotibiga yetkazib berilgan sanasi muhokamaning boshlanish sanasi deb hisoblanadi. Shubhalarni bartaraf qilish uchun Hakamlik Muhokama Ogohnomasi 3.1 va 6.1 (b) -moddalarning (agar kerak bo'lsa) to'liq bajarilishi, yoki Kotib ushbu talablarga jiddiy rioya e'tilganligini belgilab bergen hollardada to'liq ariza hisoblanadi. SXAM, taraflarni hakamlik muhokamasi boshlanishi haqida ogohlantiradi.

3.4

Da'vogar, hakamlik Kotibini ogohlantirishi bilan bir vaqtda, Hakamlik Ogohnomasi nusxasini Javobgarga yuborishi kerak va Kotibni buni amalga oshirganligi haqida va buni qanday muloqaat vositasi orqali amalga oshirilganligi va qaysi san'ada amalga oshirilganligi haqida ma'lumot berishi kerak.

4- Hakamlik Ogohnomasiga javob

4.1

Javobgar Hakamlik Ogohnomasini olgan kundan boshlab 14 kun ichida Kotibga javob beradi. Javob quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a.

da'voning qisman yo'ki butunlay tasdiqlash yoki rad e'tish, shu jumladan, agar o'rini bo'lsa Tribunal tarkibi noqonuniyligi haqida e'tirozi;

b.

har qanday qarshi da'voning mazmunini va holatini tavsiflaydigan, shuningdek barcha talablar va imkon bor joyida qarshi da'voni dastlabki miqdorini ko'rsatuvchi qisqa bayonot;

c.

3.1 Nizomi boyicha Hakamlik Ogohnomasida ko'rsatilgan bayonotga har qanday izoh va javob, yoki ushbu nizom qoplaydigon har qanday masalalarga izoh

d.

Agar taraflar tomonidan oldindan o'zaro kelishib olinmagan bo'lsa, va hakamlik bitimida uchta Hakam nazarda utilgan bolsa, Hakamlar nomzodi, yoki hakamlik bitimi yagona Hakam tomonidan da'voni ko'rib chiqilishi nazarda utilgan bo'lsa; Da'vogar tomonidan taklif e'tilgan hakam nomzodi haqida izoh yoki, Javobgarning o'z nomzod taklifi

e.

Ushbu Nizmoga asosan, har qanday qarshi da'vo uchun majburiy tolov

4.2

20.3 va 20.4-nizomlarida aytib otilgandek, Javob, mudofaa bayonoti va qarshi da'vo bayonotini oz ichiga olishi mumkin.

4.3

Javobgar, hakamlik kotibini ogohlantirishi bilan bir vaqtda, Hakamlik Ogohnomasi nusxasini Davogarga yuborishi kerak va Kotibni buni amalga oshirganligi haqida va buni qanday muloqaat vositasi orqali amalga oshirilganligi va qaysi san'ada amalga oshirilganligi haqida malumot berishi kerak.

5- Tezlashtirilgan Ish Tartibi

5.1

Tribunal tarkibi tuzilgunga qadar, quyidagi shartlarning har qaysi biri qondirilsa, taraflar ushbu Nizomga asoslanib hakamlik muhokamasi tezlashtirilgan tartibda o'tkazilishi uchun Kotibga ariza berishlari mumkin;

a.

Nizoning umumiyligi miqdori, da'vo, qarshi da'vo va har qanday e'tirozni jamlagan holda \$6 000 000 Singapur dollaridan oshmaydi;

b.

taraflar shunday kelishib olsalar; yoki

c.

favqulotda dolzARB holatlarda

5.1 chi nizoga asosan ishni tezlashtirilgan holda korib chiqilishini so'ragan tomon hakamlik Kotibini ogohlantirishi bilan bir vaqtda, Tezlashtirilgan Ish Tartibi ariza nusxasini Javobgarga yuborishi kerak va Kotibga buni amalga oshirganligi haqida va qanday muloqaat vositasi orqali amalga oshirilganligi va qaysi san'ada amalga oshirilganligi ma'lumot beradi.

5.2

Agar taraflar 5.1 Nizomga asoslanib Kotibga ariza topshirgan bo'lsalar, va taraflarning nuqtai nazarlarini ko'rib chiqib va ishning holatlarini hisobga olgan holda, Prezident shunday belgilagan bo'lsa, hakamlik muhokamasi Tezlashtirilgan Ish Tartibiga muvofiq o'tkaziladi. Bunday holda quyidagi tartib qo'llaniladi:

- a. Kotib ushbu Nizomda nazarda tutilgan har qanday belgilangan vaqt cheklamini qisqartirishi mumkin
- b. Prezident boshqa qaror qabul qilmasa, ishni ko'rish yagona hakamga topshiriladi
- c. Tribunal, taraflar bilan maslahatlashgandan so'ngra, nizo faqat hujjat dalillari asosida korib chiqilishi yoki guvoh va mutaxassislarni so'roq qilish va har qanday og'zaki

bahslarni tekshirish asosida korib chiqilshi kerakligi haqida qaror qabul qilishi mumkin;

- d. Favquloddagi hollarga asoslanib, Kotib belgilangan muddatni uzaytirmagan bolsa, yakuniy Qaror Tribunal tashkil e'tilgan sanadan boshlab olti oy ichida amalga oshiriladi
- e. Agar taraflar Yakuniy Qaror izohi kerak emasligi haqida kelishib olmagan bolsalar, Tribunal, Yakuniy Qaror sabablarini qisqacha bayon qilishi mumkin

5.3

Ushbu nizomlarga asosan Hakamlik Muhokamasi olib borilishiga rozi bolgan holda, agar hakamlik muhokamasi 5chi nizomga asosan Ishni tezlashtirilgan tartibida korib chiqilsa, 5.2 Nizomda aytib otigan tartib va qoidalar hakamlik bitimi shartlariga zid kelgan holatlarda ham qo'llanilishi haqida taraflar kelishib oladi.

5.4

Bir tarafning arizasiga binoan va taraflarga tinglanish imkoniyati berilgach, Tribunal keginchalik mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni hisobga olgan holda va Kotib bilan maslahatlashgan holda, hakamlik muhokamasi bundan song'ra Tezlashtirilgan tartibda o'tkazilmasligi haqida buyruq berishi mumkin. Agar Tribunal 5.4 nizomga ko'ra arizani qabul qilsa hakamlik muhokamasi Ishni Tezlashtirilgan Holda korib chiqilishi uchun tuzilgan ayni Tribunal tarkibi bilan davom etadi.

6-Birdan Ortiq Shartnomalar

6.1

Agar bir nechta shartnomadan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, da'vogar:

a.

har bir hakamlik shartnomasiga qarshi da'vo, Hakamlik Ogohnomasi uchun ariza berish va shu bilan birga 8.1 nizomga asosan barcha shartnomalardan kelib chiqqan nizolarni birlashtirish uchun ariza berish; yoki

b.

Barcha hakamlik bitimlariga qarshi Tribunalga yagona murojat va, 8.1 nizomi qanday qondirilgani haqida tushuntirish.

Da'vogar har bir hakamlik bitimiga qarshi, alohida, bir nechta hakamlik ishini boshlagan hisoblanadi, va Hakamlik Ogohnomasi ushbu 6.1 (b) nizomiga asosan barcha hakamlik bitimlarini qamrab olishi uchun ariza hisoblanadi.

6.2

Agar da'vogar 6.1 (a) nizomiga asosan ikki yoki undan ortiq Hakamlik Ogohnomasi uchun ariza topshirgan bolsa bu barcha hakamlik bitimlarini birlashtirish haqida ariza deb qa'bul qilinadi va Kotib yagona ariza uchun to'lov qabul qiladi.

Agar Sud hakamliklarni qisman yoki butunlay birlashtirish haqida rad qarorini qabul qilsa, da'vogar ushbu nizomga asosan har bir bitimga kerakli bolgan ariza uchun alohida tolovlarni amalga oshiradi.

6.3

Agar da'vogar 6.1 (b) nizomiga asoslanib yagona Hakamlik Ogohnomasi uchun ariza topshirgan bo'lsa, Sud bunday murojatni qisman yoki butunlay rad qilgan bolsa, da'vogar har bir hakamlik bitimiga qarshi Hakamlik Ogohnomasi arizasini topshirishi va har bir hakamlik bitimiga nisbatan alohida to'lov tolaydi.

7-Qo'shimcha ishtirokchilarini birlashtirish

7.1

Tribunal tarkibi tuzilishidan oldin, taraflar yoki hakamlikga tarafda bo'limgan shaxslar ushbu Nizomga asoslanib da'vogar yoki javobgar sifatida muhokamada qatnashish uchun, bir yoki bir nechta qo'shimcha shaxslarni qoshish uchun, quyidagi shartlarni qondirgan holda Kotibga ariza berishlari mumkin:

a.

birlashtiriladigan qo'shimcha ishtirokchi - hakamlik bitimiga *prima facie* aloqador bo'lgan; yoki

b.

barcha taraflar, jumladan, birlashtiriladigan qo'shimcha ishtirokchi qo'shilishiga rozi bo'lgan holda.

7.2

7.1-chi Nizoga asosan qo'shilish to'g'risidagi ariza quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a.

Mavjud hakamlik muhokamasining tavsif raqami;

b.

agar ma'lum bo'lsa, barcha taraflarning, shu jumladan hakamlik muhokamasiga qo'shimcha bolgan shaxslarnini, ismlari, manzillari, telefon raqamlari, faks raqamlari, elektron pochta manzillari, ularning vakillari va olib borilayotgan hakamlik muhokamasi uchun tayinlangan hakamlari;

c.

qo'shimcha taraf da'vogar yoki javobgar sifatida birlashganligi haqida ma'lumot;
d.

3.1 (c) va 3.1 (d) – nizomlarida ko'rsatilgan ma'lumot;

e.

agar ariza 7.1 (b) Nizomga asoslanib topshirilgan bo'lsa, tegishli bitim va iloji bo'lsa, bunday bitimning nusxasi; va

f.

qisqacha vaziyat bayoni va arizani qo'llab-quvvatlovchi huquqiy asos.

7.2-Nizomning barcha talablari bajarilganda yoki Kotib ushbu talablarning asosiy qismi bajarilganligini belgilab bergen holda, qo'shimcha ishtirokchilarni qo'shish haqida berilgan ariza to'liq hisoblanadi. SXAM, barcha ishtirokchilarni, shu jumladan qo'shilish uchun ariza bergen ishtirokchilarni ariza qabul e'tilganligi haqida habardor etadi.

7.3

7.1-nizomga asosan qo'shilish uchun ariza topshirgan taraf yoki hakamlikga tarafda bo'limgan shahslar, Kotibga qo'shilish to'g'risidagi arizani taqdim e'tish bilan bir vaqtida, arizaning nusxasini barcha taraflarga, shuningdek hakamlik muhokamasiga qo'shimcha bo'lgan shaxsga jo'natish va Kotibga buni amalga oshirganligi haqida va buni qanday muloqaat vositasi orqali amalga oshirilganligi va qaysi san'ada amalga oshirilganligi haqida ma'lumot berishi kerak.

7.4

Sud barcha taraflarning, shu jumladan hakamlik muhokamasiga qo'shimcha bolgan shahsning fikrlarini ko'rib chiqib, ishning holatlarini hisobga olgan holda, 7.1 nizomiga asoslanib qo'shilish to'g'risidagi arizalarini to'liq yoki qisman qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Sudning ushbu 7.4chi nizomga asoslanib hakamlik muhokamasiga qo'shilish to'g'risidagi arizani qa'bul qilish qarori, bunday qarordan kelib chiqadigan har qanday noqonuniylik masalalarini hal qilish uchun Tribunal mahkamasining masuliyatlarini cheklamaydi. Sudning ushbu 7.4 chi nizomga asoslanib Qoshimcha taraflarni qo'shilish to'g'risidagi arizasini to'liq yoki qisman rad e'tish to'g'risidagi qarori, 7.8chi nizomga asoslanib har qaysi taraf yoki tarafda bo'limgan shaxsning Tribunal mahkamasiga qo'shilishi uchun murojaat e'tish huquqiga zid bo'lmaydi.

7.5

Agar qo'shilish to'g'risidagi ariza 7.4-nizomiga asosan qabul qilinsa qo'shilish to'g'risida to'liq ariza qabul qilingan sana, qoshilgan tarafga nisbatan hakamlik muhokamasi boshlangan sanasi hisoblanadi.

7.6

Agar 7.4. nizomi asosida Hakamlik muhokamasiga qoshilish uchun Ariza qabul qilingan

bolsa, Sud, qo'shilish to'g'risidagi qaror qabul qilinishiga qadar tayinlangan barcha hakamlarni lavozimidan ozod qilishi mumkin. Agar barcha taraflar, jumladan qo'shilgan qo'shimcha shaxslar o'rtasida kelishib olinmagan bo'lса, 9 chidan 12-gacha bo'lган Nizomlar tegishli ravishda qo'llaniladi va tegishli muddat jadvallari 7.4 chi nizoga asosan Sud qarori olingan kundan boshlab ishga kiradi.

7.7

7.6-chi nizomga asosan har qanday hakamni lavozimini bekor qilish to'g'risidagi sud qarori, u hakamning lavozimidan ozod e'tilmagunga qadar qilgan har qanday harakat yoki chiqarilgan buyrug'ining amal qilishiga zid bolmaydi.

7.8

Ushbu nizomlar asosida, quyidagi shartlar qondirilgan holda, Tribunal tarkibi tashkil topgandan son'gra hakamlik tarafi yoki hakamlikga tarafdar bolmagan shaxs olib borilayotgan hakamlik ishiga bir yoki bir nechta qo'shimcha shaxslarni qoshish uchun Tribunalga murojaat qilishi mumkin:

a.

birlashtiriladigan qo'shimcha taraf - hakamlik bitimiga *prima facie* aloqador; yoki

b.

barcha taraflarning, jumladan, qoshilayotgan tarafning roziligi bolgan holda

O'rinli bolgan hollarda, ushbu 7.8 nizomga asosan Tribunalga yollangan ariza Kotibga topshirilishi mumkin.

7.9

Tribunalning har qanday mahsus yonalishlarini hisobga olgan holda, 7.2chi nizomning qoidalari Qoshimcha ishtirokchilarni biriktirish uchun arizaga nisbatan *mutatis mutandis* qollaniladi.

7.10

Tribunal barcha taraflarga, shu jumladan qo'shilayotgan ishtirokchi tarafiga, shuningdek, ko'rib chiqilishi va ishning holatlarini hisobga olgan holda, 7.8 nizomga asoslanib qo'shilish to'g'risidagi arizani to'liq yoki qisman qoniqtirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Tribunalning 7.10-nizomiga asosan qo'shilish to'g'risidagi arizani qoniqtirish qarori, ushbu qarordan kelib chiqadigan qarorga oid har qanday savolni keginchalik hal qilish vakolatiga zid kelmaydi.

7.11

Agar qo'shilish to'g'risidagi ariza 7.10-nizomiga asosan qoniqtirilsa, vaziyatga ko'ra, Tribunal yoki Kotib qo'shilish to'g'risidagi to'liq arizani qabul qilgan sanasi, qo'shimcha tarafga nisbatan muhokamaning boshlanish sanasi deb hisoblanadi.

7.12

Qo'shilish to'g'risidagi ariza 7.4 yoki 7.10-nizomlarga asosan qoniqtirilgan hollarda,o'z hakamini tayinlamagan yoki Tribunal birikishida boshqa tarzda qatnashmagan har bir taraf o'zining 14-chi nizomga asosan hakamlik sudiga shikoyat qilish huquqiga zid kelmagan holda hakamlik sudyasini tayinlash huquqidan yoki boshqacha tarzda Tribunalni Tashkil topishida qatnashish huquqidan voz kechgan hisoblanadi.

7.13

Agar qo'shilish to'g'risidagi ariza 7.4-yoki 7.10-nizomga asosan qondirilsa, ushbu Nizomga asosan arizani topshirish uchuntolanadigon to'lov har qanday qo'shimcha da'vo yoki qarshi da'vo uchun ham undiriladi.

8-Hakamlik Muhokamalarini Birlashtirish

8.1

Har qanday Hakamlik Muhokamalari tribunal tarkib topgunga qadar, davo'gar ushbu nizom asosida ikki yoki undan ortiq olib borilayotgan hakamlik ishini yagona hakamlik muhokamasiga birlashtirishi uchun Kotibga ariza topshirishi mumkin, bu holda har bir biriktirilayotgan ishga nisbatan quyidagi shartlar qoniqtirishi kerak:

- a.
barcha taraflar hakamlik muhokamalarini birlashtirishga rozi bo'lganda;
- b.
hakamlik muhokamasidagi barcha da'volar yagona hakamlik bitimi orqali tuziladi; yoki
- c.
hakamlik bitimlari bir birini toldiradigon va: (i) davo'lar yagona huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda; (ii) Da'vo asosiy shartnomaga va uning qoshimcha shartnomalari natijasida yuzaga keladi; yoki (iii) Da'vo yagona munosabat yoki bir necha munosabatlar natijasida kelib chiqqan holda.

8.2

8.1-nizomga asosan Hakamlik Muhokamalarini Birlashtirish uchun ariza quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a.
Birlashtirilayotgan mavjud hakamlik muhokamalarining tavsif raqamlari ;
- b.
agar ma'lum bo'lsa, barcha taraflar va ularning vakillarining familiyalari, manzillari, telefon raqamlari, faks raqamlari va elektron pochta manzillari, va mavjud bo'lsa biriktirilayotgan hakamlik muhokamalari uchun hakam nomzodi yoki tayinlanadigan hakamlar

c.

3.1 (c) va 3.1 (d) -Nizoda ko'rsatilgan ma'lumot;

d.

agar ariza 8.1 (a) nizomga asosan topshirilgan bo'lsa, tegishli shartnoma tafsifi va mavjud bo'lsa, bunday bitimning nusxasi; va

e.

arizani qo'llab-quvvatlovchi huquqiy asos va qisqacha bayonot.

8.3

Hakamlik muhokamalarni 8.1 nizomga asosan biriktirish uchun Kotibga ariza topshirgan Da'vogar, ayni vaqtda ushbu arizaning nusxasini barcha muhokamada ishtirot etayotgan taraflarga yuborishi kerak va Kotibga buni amalga oshirganligi haqida va buni qanday muloqaat vositasi orqali amalga oshirilganligi va qaysi san'ada amalga oshirilganligi haqida ma'lumot berishi kerak.

8.4

Sud barcha taraflarning fikrlarini ko'rib chiqib, ishning holatlarini hisobga olgan holda, 8.1 nizomga asoslanib Hakamlik muhokamalarini birlashtirish haqidagi har qanday arizani to'liq yoki qisman qoniqtirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Sudning 8.4-nizomga asosan Hakamlik Muhokamalarini birlashtirish haqidagi arizani qoniqtirish qarori, bunday qarordan kelib chiqadigan har qanday muammolarnin hal qilish uchun Tribunalning vakolatiga zid bo'lmaydi. Sudning 8.4-nizomga asosan Muhokamalarni biriktirish haqidagi arizani to'liq yoki qisman rad e'tish qarori, barcha taraflarning 8.7-nizomga asosan Muhokamalarni birlashtirish uchun Tribunalga ariza berish huquqini cheklamaydi. Biriktirilmagan Hakamlik Muhokamalari ushbu nizomga asosan alohida hakamlik muzokarali sifatida davom etadi.

8.5

Sud 8.4-nizomga asoslanib ikki yoki undan ortiq hakamlikni biriktirish to'g'risida qaror qabul qilgan bolsa, taraflar o'rasida boshqacha kelishuv bo'lмаган holda yoki Sudning ishni shartlarini korib boshqa qaror olmagan bolsa, ushbu biriktirilayotgan hakamliklar avval Kotib tomonidan boshlangan (ochiq) deb belgilangan bolishi kerak.

8.6

Agar Hakamlik muhokamalarni birlashtirish uchun topshirilgan ariza 8.4 nizomga asosan qondirilgan bo'lsa, Sud ushbu qaror qabul qilingunga qadar tayinlangan har qanday hakamlarni lavozimidan ozod qilishi mumkin. Barcha taraflar o'rtasida boshqacha kelishuv bo'lmasa 12-chi va 9-chi nizom qollaniladi, va 8.4-moddaga asosan muddatlar Sud qarorini qabul qilingan kundan boshlanadi.

8.7

Barcha biriktirilayotgan Hakamlik Muhokamalari uchun Tribunal tarkibi tuzilgandan songra, biriktirilayotgan hakamlik muhokamalari bo'yicha quyidagi talablarga javob bergen holda,

taraflar mazkur Nizomlarga muvofiq ikki yoki undan ortiq hakamlik Sudlarini yagona hakamlik muhokamasiga birlashtirishi uchun tribunalga ariza berishlari mumkin;

a.

barcha taraflar muhokamalar biriktirilishiga rozi bo'lgan holda;

b.

Hakamlik sudidagi barcha da'volar yagona hakamlik bitimi asosida amalga oshirilgan holda va har bir hakamlik muhokamasida aynan bir xil tribunal tarkibi tashkil e'tilgan yoki boshqa hakamlik muhokamalarida tribunal tashkil e'tilmagan hollarda; yoki

c.

hakamlik bitimlari bir biriga zid kelmaganda, va har bir hakamlik muhokamasida aynan bir xil tribunal tarkibi tashkil e'tilgan yoki boshqa hakamlik muhokamalarida tribunal tashkil e'tilmagan hollarda, va: (i) davo aynan bir huquqiy munosabat natijasida kelib chiqqanda, (ii) Da'vo asosiy shartnomaga va unga qoshimcha bolgan shartnomalari natijasida yuzaga keladi; yoki (iii) Da'vo yagona munosabat yoki bir necha munosabatlar natijasida kelib chiqqan holda.

8.8

Tribunalning har qanday mahsus yollanmasini hisobga olgan holda, 8.2chi nizomning moddalari, 8.7 chi nizomga asosan topshirilan Hakamlik muhokamalarini biriktirish arizasiga nisbatan *mutatis mutandis* qollaniladi.

8.9

Tribunal, barcha taraflarga oz nuqtai nazarini bayon e'tish imkoniyati bergenidan songra va ishning vaziyatlarini hisobga olgan holda, 8.7-nizomga asoslanib Hakamlik Muhokamalarini Biriktirish tog'risidi arizani to'liq yoki qisman qoniqtirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Tribunalning 8.9-nizom asosida Muhokamalarni Biriktirish uchun topshirilgan arizani qoniqtirish qarori, ushbu qarordan kelib chiqadigan har qanday noqonuniylik savollarni hal qilish uchun korib chiqish uchun Tribunal mahkamasining masuliyatlarini cheklamaydi. Biriktirilmagan har qanday hakamlik ishi ushbu Nizomga asosa alohida hakamlik muhokamasi sifatida davom etadi.

8.10

Hakamlik muhokamalarini Biriktirishi uchun topshirilgan ariza 8.9 nizomga asosan qoniqtirilgan holda, Sud ushbu qarorga qadar tayinlangan har qanday hakamlarni lavozimidan ozod qilishi mumkin.

8.11

Sudning 8.6-chi yoki 8.10-chi nizomiga asoslanib har qanday hakamni lavozimidan ozod e'tish to'g'risidagi qarori u hakamning lavozimidan ozod e'tilmagunga qadar qilgan har qanday harakat yoki chiqarilgan buyrug'ining amal qilishi bekor qilmaydi.

8.12

Hakamlik Muhokamalarini biriktirish uchun topshirilgan ariza 8.4-chi yoki 8.9- chi nizomlar asosida qoniqtirilgan holda, o'z hakamini tayinlamagan yoki Tribunal tarkibini tashkil qilishda boshqa tarzda qatnashmagan taraf oz hakamini tayinlash va Tribunal tarkibini tashkil topishida qatnanshish huquqidan voz kechgan hisoblanadi, ammo 14-nizomga asoslanib, ushbu taraf hakamlik Sudiga shikoyat qilish huquqi bekor bolmaydi.

9- Hakamlik sudyalari soni va tayinlanishi

9.1

Ushbu nizomga asosan, agar taraflar orasida boshqacha kelishilmagan bo'lsa, har qanday hakamlik ishi uchun yagona hakam tayinlanadi; yoki taraflarning har qanday taklifiga, da'veoning murakkabligi, miqdori yoki boshqa tegishli holatlariga asoslanib Kotib qarori bilan uchta hakam tayinlanadi.

9.2

Har qanday hakam bir yoki bir nechta taraflar yoki uchinchi shaxs, shu jumladan tayinlangan hakam tomonidan tayinlanishi haqida kelishib olsalar, ushbu bitim ushbu Nizomga asosan hakamlik tayinlash uchun shartnomaga deb hisoblanadi.

9.3

Barcha holatlarda taraflar tomonidan tayinlangan hakamlar yoki uchinchi shaxslar, shu jumladan avvaldan tayinlangan hakamlar ham Sud Prezidenti tomonidan saylanadi.

9.4

Prezident hakamni imkon qadar qisqa muddatda tayinlaydi. Prezidentning ushbu nizomga asosan hakam tayinlash to'g'risidagi har qanday qarori appelyaciyaga tortilmaydi.

9.5

Prezident har qanday taraf tomonidan taklif yoki tavsiya e'tilgan nomzodni tayinlashi mumkin.

9.6

Har bir hakamni tayinlash muddatlari ushbu nizomga va amaldagi qonunlarga asosan, yoki taraflarning kelishuviga muvofiq Kotib tomonidan belgilanadi.

10- Yagona hakam

10.1

Agar yagona hakam tayinlanadigan bo'lsa, har qaysi taraf bir yoki bir nechta shaxslarning nomzodlarini yagona hakam sifatida xizmat qilish uchun qarshi taraf(lar)ga taklif qilishi mumkin. Taraflar yagona hakam to'g'risida kelishilgan holda, 9.3-chi nizom qo'llaniladi.

10.2

Agar hakamlik muhokamasi boshlangan kundan boshlab 21 kun ichida yoki taraflar o'rtasida kelishilgan yoki Kotib tomonidan belgilanadigan muddat ichida taraflar yagona hakam tayinlash bo'yicha kelishuvga erishmagan bo'lsa, yoki har qaysi taraf talabiga binoan, Sud prezidenti yagona hakamni tayinlab beradi.

11-Uch hakam

11.1

Agar uchta hakam nomzodi tayinlanishi kerak bo'lsa, har bir taraf bir hakam nomzodini taklif etadi.

11.2

Agar taraflardan biri 14 kun ichida, yoki taraflar o'z orasida kelishilgan muddat, yoki Sud Kotibi belgilagan muddat ichida hakamlik uchun o'z nomzodini taklif etmagan holda, Sud Prezidenti ushbu taraf nomidan hakam tayinlaydi.

11.3

Agar taraflar uchinchi hakamni tayinlash tartibi haqida kelishib olmagan bo'lsa, yoki bunday kelishilgan tartibda taraflar tomonidan kelishilgan yoki Kotib tomonidan belgilangan muddat ichida hakam nomzodi chiqarilmasa, Prezident uchinchi va raislik qiluvchi hakamni tayinlaydi.

12- Kopchilik taraflar tomonidan hakam(lar) tayinlanishi

12.1

Hakamlik muhokamasida ikki va undan ortiq ishtirokchi bo'lsa va yagona hakam tayinlanishi kerak bo'lgan holda, taraflar yakka hakamni birgalikda tayinlashga kelishib olishi mumkin. Hakamlik muhokamasi boshlangan kundan boshlab taraflar o'rasida kelishilgan muddat yoki Kotib tomonidan belgilanadigan muddatda, yoki 28 kun ichida bunday qo'shma kelishilgan nomzod tayinlanmagan bo'lsa Prezident yagona hakamni tayinlaydi.

12.2

Agar hakamlik Sudida ikkitadan ortiq ishtirokchi va uch hakam tayinlangan bo'lsa, da'vegar (lar) birgalikda bir hakam nomzodini va javobgar (lar) birgalikda bir hakam nomzodini tayinlaydilar. Uchinchi hakam muhokamaga raislik qiluvchi hakam bolib 11.3-chi nizomga asosan tayinlanadi. Agar bunday qo'shma nomzodlar hakamlik muhokamasi boshlangan kundan boshlab 28 kun ichida yoki taraflar o'zaro kelishilgan muddat ichida yoki Kotib tomonidan belgilangan muddatda tayinlanmagan bolsa, Prezident uch hakamni tayinlaydi va ulardan birini raislik qiluvchi hakam sifatida saylaydi.

13-Hakamlarning malakasi

13.1

14

Ushbu Nizomga asosan hakamlik muhokamasi uchun tayinlangan har qanday hakam nomzodi, taraflardan biri tomonidan tayinlangan yoki tayinlanmaganligidan qatiy nazar, har doim mustaqil va xolis bo'lib qolishi kerak.

13.2

Ushbu nizomga asosan hakamni tayinlashda Prezident, taraflarning kelishuvlagi talablarga javob bera oladigon va hakamlik sudining halolligi va mustaqilligiga daxldor bo'lgan fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda hakamni tayinlaydi.

13.3

Shuningdek, President ishni mohiyatini hisobga olgan holda, ishni tez va samarali tarzda korib chiqilishi uchun hakamning yetarli darajada vaqt ajrata bilish imkoniyatiga egaligini e'tiborga oladi.

13.4

Nomzodi chiqarilgan hakam, imkoni boricha eng qisqa vaqt ichida, va lavozimga tayinlanishidan oldin

taraflarni va Kotibni o'zining beg'arazligi yoki mustaqilligi haqida shubha tug'dirishi mumkin bolgan har qanday sharoitlar haqida ogohlantishi kerak.

13.5

Hakam, hakamlik muhokamasi davomida kelib chiqqan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan beg'arazlik yoki mustaqillikligi haqida asosli shubhalarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday holatlarni taraflarga, boshqa hakamlarga va Kotibga darhol ma'lum qiladi.

13.6

Nomzodga davo'ning umumiyligi holati va kutilgan jarayon, nomzodning malakasini, taraflarga nisbatan mustaqilligini muhokama qilishdan va taraflar, va ular tomonidan tayinlangan hakamlarning, raislik qiluvchi hakam tanlovda ishtirok e'tishlari, nomzodlarning raislik qiluvchi hakam sifatida ko'rib chiqilishi uchun tog'ri kelishini muhokama qilishdan tashqari; taraflardan biri yoki ular nomidan ish yurituvchi shaxs boshqa taraflar ishtirokisiz hech bir hakam yoki taraflar tomonidan hakamlik uchun nomzodi tayinlangan shaxs bilan olib borilayotgan ish bo'yicha hech qanday muzokara olib bormaydi. Hech bir taraf yoki ularning nomidan ish yurituvchi biron bir shaxs olib borilayotgan ish haqida raislik qiluvchi hakam nomzodi bilan hech qanday muzokara olib bormaydi.

14- Hakamlarni Bo'shatish

14.1

Agar hakamning beg'arazligi yoki mustaqilligiga nisbatan asosli shubhalar tug'diruvchi sharoitlar yoki hakam taraflarning o'zaro kelishilgan shartli malakaga ega bo'lmasa, har qanday hakamga qarshi lavozimidan boshatilishi uchun ariza topshirilishi mumkin.

14.2

Bir taraf o'zi tayinlagan hakamga qarshi, faqat ushbu hakam lavozimga tayinlanganidan kegin yangi oshkor bolgan sabablarga ko'ra da'vo qilishi mumkin.

15- Hakamga qarshi e'tiroz bildirish haqida ogohnoma

15.1

Hakamga qarshi e'tiroz bildirmoqchi bo'lган томон, 15.2-nizомга асосан, hakam tayinlanganligi haqidagi xabarni olgandan kegin 14 kun ichida yoki 14.1-chi 14.2-chi nizomlarda belgilangan holatlar ma'lum bolib yoki asosli ravishda ma'lum bo'lishi kerak vaqtan boshlab 14 kun ichida Kotibga e'tiroz bildirish haqida ariza topshiradi.

15.2 Hakamga qarshi e'tiroz ogohnomasi e'tiroz uchun sabablarni o'z ichiga olishi kerak. Kotib e'tiroz haqida ariza oлган kun ushbu ariza topshirilgan kun deb hisoblanadi. Hakamga qarshi e'tiroz bildirayotgan taraf, Kotibga ariza topshirish bilan bir vaqtida qarshi tarafga, e'tiroz bildirilayotgan hakamga va Tribunalning boshqa qatnashchilariga (Tribunal tarkibi tuzilgan holda, har qanday boshqa hakamlarga) hakamga qarshi e'tiroz bildirganligi haqida ogohnoma yuboradi, va Kotibga buni amalga oshirganligi haqida xabar beradi.

15.3

E'tiroz bildirgan taraf, ushbu nizomga асосан талаб qilinadigan da'vo to'lovini amalgalashadi. Agar da'vogar Kotib томонидан belgilangan muddat ichida tolovni amalgalashadi, da'vo bekor qilingan deb hisoblanadi.

15.4

15.2-nizомга асосан ariza qabul qilingach, Kotib e'tiroz da'vosi hal bolgunga qadar hakamlik muhokamasini to'xtatish to'g'risida buyruq berishi mumkin. 15.4 chi nizомга асосланиб Kotib hakamlik muhokamasini to'xtatish to'g'risida qaror chiqarmagan bo'lsa, hakam 16-chi nizомга асосан e'tiroz davo'si hal bolgunga qadar olib borilayotgan hakamlik ishida ishtirot e'tishni davom e'tirrish huquqiga ega.

15.5

Taraflardan biri hakamga qarshi e'tiroz bildirsa va qarshi taraf bu e'tirozni qabul qilib unga qo'shilsa, Sud barcha taraflar e'tirozni qabul qilganligi uchun Hakamni lavozimidan ozod qilishi mumkin. Hakam ham o'z ixtiyoriy ravishda lavozimidan kechishi mumkin. Har qanday holda, e'tiroz uchun mavjud bolgan sabablar isbotlangan deb hisoblanmaydi.

15.6

Agar hakam 15.5-chi nizомга асосан lavozimidan voz kechsa yoki chetlatilsa, o'rnini bosadigan hakam nomzodini chiqarish va tayinlash tartibga binoan o'rniqa boshqa hakam tayinlanadi. Ushbu tartib, hakam tayinlash jarayonida taraflar o'z nomzodini chiqarish

huquqini qollanmagan holda ham amalga oshiriladi. Qarshi taraf hakamga qarshi e'tirozga rozilik bergen kundan yoki hakam o'z lavozimidan voz kechgan kundan boshlab, uning o'rnini bosish uchun nomzodni tayinlash va saylash uchun muddat sanovi boshlanadi.

16- E'tirozni qabul qilish qarori

16.1

E'tiroz haqida ogohnoma olingandan son'gra yetti kun davomida qarshi taraf ushbu e'tirozga rozi bolmasa va hakam o'z lavozimidan voz kechmagan holda 15-nizomga asosan, Sud bu masalani hal qilishni o'z ihtiyoriga oladi. Sud e'tiroz yuzasidan taraflardan, hakamning o'zidan va boshqa Tribunal a'zolarining (yoki Tribunal tarkibi tashkil topmagan holda, hali, har qaysi tayinlangan hakamlardan) izoh berishni so'rashi va bunday izohlar uchun tartib belgilashlari mumkin.

16.2

Agar Sud hakam ustidan berilgan e'tirozni qabul qilsa, Sud ushbu hakamni olib tashlaydi va o'rnini bosadigan hakam nomzodini chiqarish va tayinlash haqidagi tartibga asoslanib boshqa hakam tayinlanaydi. Nomzodini tayinlash uchun qo'llaniladigan vaqt muddati, Kotib Sud qarorini taraflariga bildirgandan song'boshlanadi.

16.3

Agar Sud hakamga qarshi bolgan e'tiroz haqidagi arizani qabul qilmasa, hakam hakamlik muhokamasida davom etadi.

16.4

Agar taraflar o'rtasida boshqacha kelishilmagan bo'lsa, Sudning hakamga qarshi har qanday e'tiroz haqidagi qarori ushbu 16-chi nizomga asosan, asosli bolishi kerak, va Kotib tomonidan taraflarga bildiriladi. Sudning har qanday e'tiroz bo'yicha olingen qarori har yakuniy hisoblanadi va apellyatsiyaga berilmaydi.

17-da'vom: Hakamni almashtirish

17.1

Hakamlik muhokamalari davomida hakamni vafoti, lavozimidan voz kechishi, ishdan bo'shashi yoki lavozimidan ozod e'tilgan hollarda, agar ushbu Nizomlarda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uning o'rnini bosadigon hakam, nomzodini chiqarish va hakamlik uchun tayinlash tartibi boyicha tayinlanadi.

17.2

Agar hakam Nizomlarga asosan va belgilangan vaqt muddati ichida o'z vazifalarini bajarishdan voz kechsa yoki vazifalarini bajara olmasa, yoki hakam o'z vazifalarini bajarish uchun har qanday de jure va de facto sabablarga ko'ra amalga oshira olmasa, 14-16 va 17.1-nizomlarda aytib o'tilgan, hakamlik sudyasini olib tashlash va almashtirish haqidagi tartiblar qo'llaniladi.

17.3

Prezident o'zining tashabbusi bilan va o'z ixtiyori bilan, belgilangan muddat nizomlarga asosan o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortadigan yoki bajara olmagan, yoki de jure va de facto sabablarga ko'ra bajarishi imkonsiz bolgan, yoki kerakli darajada ehtiyyotkorlik ko'rsatmagan va nizoniadolatli, tezkor, tejamkor va yakuniy hal e'tishni kafolatlaydigan tarzda amalga oshira bilmagan hakamni lavozimidan olib tashlashi mumkin. ushbu Nizomga asosan prezident hakamlik syasini olib tashlashdan oldin, taraflar va tribunal a'zolarini (yoki Tribunal tarkibi tayinlanmagan bo'lsa, har qanday tayinlangan hakamlar), shu jumladan olib tashlanishi lozim bo'lgan hakam bilan maslahatlashadi.

18- Hakam ozgargan holda takror muhokama olib borilishi

Agar taraflar o'zaro boshqacha kelishilmagan holda, yagona yoki raislik qilayotgan hakam 15-chi va 17-chi nizomlarga asosan o'zgartirilsa, ilgari o'tkaziladigan har qanday muhokama takroran otkaziladi. Agar boshqa boshqa ozgartirilsa, ilgari o'tkaziladigan har qanday muhokama taraflar bilan maslahatlashganidan kegin Tribunalning ixtiyoriga asosan takrorlanishi mumkin. Agar Tribunal vaqtinchalik yoki qisman qaror qilgan bo'lsa, faqatgina ushbu qarorga taalluqli har qanday muhokamani takrorlash kerak emas va qaror amal qilishi davom etadi.

19-Muhokama o'tkazish

19.1

Tribunal hakamlik muhokamasini taraflar bilan maslahatlashganidan so'ng, da'veni adolatli, tezkor, tejamli va to'liq hal e'tishni ta'minlash uchun kerakli ravishda o'tkazadi.

19.2

Tribunal barcha dalillarning ahamiyatini, jiddiyligi va qabul e'tilishi mumkinligini aniqlaydi. Tribunal bunday qaror qabul qilishda dalillarga qarshi amaldagi qonunlarni qo'llash talab qilinmaydi.

19.3

Tribunal Tarkibi tashkil e'tilgandan kegin eng qisqa vaqt ichida muhokamani eng maqbul va samarali bo'lgan tartiblarini muhokama qilish uchun Tribunal, taraflar bilan shaxsan yoki boshqa holatda boshlang'ich uchrashuvi o'tkazadi.

19.4

Tribunal o'z ixtiyoriga binoan muhokama olib borilish tartibini yolga soladi, ishni qismlarga bo'lib, umumi yoki ahamiyatsiz guvohlik yoki boshqa dalillarni chiqarib tashlaydi va taraflarni ishning to'liq yoki qisman tasarruf e'tishi mumkin bo'lgan masalalarni e'tiborga olish uchun yo'naltiradi.

19.5

Taraflar orasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, raislik qiluvchi hakam yakka o'zi protsessual qarorlarni qabul qilishi mumkin, ammo bu Tribunal tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

19.6

Tribunalga va/yoki `Kotibga taraflardan biri tomonidan taqdim e'tilgan barcha bayonotlar, hujjatlar yoki boshqa ma'lumotlar ayni vaqtida qarshi tarafga ham taqdim e'tilishi lozim.

19.7

Prezident, Sud jarayonining istalgan bosqichida, taraflarga va Tribunalga ish uchun eng maqbul va samarali bo'lgan muolajalarni muhokama qilish uchun yig'ilish o'tkazishni so'rashi mumkin. Bunday uchrashuvlar yuzma yuz yoki boshqa tarzda amalga oshirilishi mumkin.

20- Taraflarning Arizalari

20.1

Tribunal boshqacha qaror qabul qilmasa, yozma bayonot berish ushbu Nizomda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

20.2

Agar 3.2-nizomga asosan hanuz taqdim e'tilmagan bo'lsa, da'vogar Tribunal tomonidan belgilanadigan muddat ichida Javobgarga va Tribunalga batafsil bayonot bergen holda da'vo arizasini yuboradi:

a.

da'veni qo'llab-quvvatlovchi dalillar bayonoti;

b.

da'veni qo'llab-quvvatlovchi qonuniy asoslar yoki dalillar; va

c.

tahmin qilingan miqdori va miqdorini o'lchash mumkin bolgan talablar.

20.3

Agar 4.2-nizomga asosan hanuz taqdim e'tilmasa, Javobgar Tribunal tomonidan belgilanadigan muddat ichida da'vogar va Tribunalga to'liq mudofaa bayonnomasini yuboradi:

a.

da'vo arizasiga qarshi mudofaasini qo'llab-quvvatlovchi dalillar bayonnomasi;

b.

Bunday mudofaani qollaydigon qonuniy asoslar yoki dalillar; va

c.

Javobgarning talablari.

20.4

Agar qarshi da'vo arizasi berilgan bolsa, da'vogar Tribunal tomonidan belgilanadigan muddat ichida Javobgar va Tribunalga qarshi davo haqida batafsil bayonot beradi:

a.
qarshi mudofaa da'vosini qo'llab-quvvatlovchi dalillar bayonoti;

b.
bunday davoni qollaydigan qonuniy asoslar yoki dalillar; va

c.
Davogarning talablari

20.5

Agar Tribunal kiritilayotgan ozgartirish ishni korib chiqilish umumiy muddatini uzaytirilishi yoki qarshi tarafning e'tirozi bolmagan holda, yoki boshqa har qanday holatlarga zid kelmasligini nazarda tutgan holda qarshi bo'lmasa, taraflar o'zining da'vo, qarshi da'vo yoki boshqa arizalariga o'zgartirish kiritishi mumkin. Biroq, da'vo yoki qarshi da'voga kiritiladigon o'zgarish hakamlik bitimining doirasidan tashqarisiga tushadigan darajada o'zgartirilishi mumkin emas.

20.6

Tribunal, taraflardan qanday qo'shimcha bayonotlar taqdim e'tishni talab qilishi yoki ular tomonidan taqdim e'tilishi mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Tribunal bunday bayonotlarni yetkazish uchun muddat belgilab beradi.

20.7

Ushbu nizomda aytib o'tilgan barcha bayonotlar, ilgari hech qaysi taraf tomonidan taqdim e'tilmagan, bayonotni qollaydigan barcha hujjatlarning nusxalari bilan birga topshiriladi.

20.8

Agar da'vogar o'z arizasini belgilangan muddat ichida topshirmasa, Tribunal hakamlik muhokamasi tugatilishi yoki tegishli bo'lgan boshqa yo'llanmalar berishi mumkin.

20.9

Agar Javobgar o'zining Mudofaa haqidagi arizasini topshira olmasa, yoki Taraflar har qanday holatda Tribunal ko'rsatmalariga binoan ishni taqdim e'tish imkoniyatidan foydalana olmasalar, Tribunal hakamlik muhokamasini davom etdirishi mumkin.

21 Hakamlik O'rni

21.1

Taraflar o'zaro hakamlik o'rni haqida kelishishlari mumkin. Bunday kelishuv amalga oshirilmasa hakamlik o'rni Tribunal ishning barcha holatlarini hisobga olgan holda, Tribunal tomonidan belgilanadi.

21.2

Tribunal eshitish jarayoni va yig'ilishlarni maqsadga muvofiq yoki tegishli deb hisoblaydigan har qanday vosita va qulay yoki o'rinli deb hisoblagan joylarda o'tkazishi mumkin.

22-Hakamlik tili

22.1

Taraflar o'rasida boshqacha kelishilmagan bo'lsa, Tribunal hakamlik muhokamasida qo'llaniladigan tilni belgilaydi.

22.2

Agar taraflardan biri hakamlikda qollaniladigan tildan boshqa tilda yozilgan hujjatni taqdim qilsa, Tribunal yoki, Tribunal tashkil e'tilmagan bo'lsa Kotib, ushbu hujjatni taraf, Kotib yoki Tribunal tarafidan beliglab berilgan shaklda taqdim e'tilishini buyurishi mumkin.

23- Taraflar vakillari

23.1

Har qanday taraf huquqshunoslar yoki boshqa vakolati bor vakillar tomonidan korsatilishi mumkin. Kotib va/yoki Tribunal har qaysi taraf vakillarini vakolatini tasdiqlashni talab qilishi mumkin.

23.2

Tribunal tarkibi tashkil topgandan kegin taraflarning o'z vakillariga biron bir o'zgarishi yoki qo'shilish kiritilsa, Tribunalga va Kotibga yozma ravishda tezda xabar qilinadi.

24-Tergovlar

24.1

Taraflar faqat hujjatlar asosida muhokama otkazishga kelishib olmagan bo'lsa yoki ushbu Nizomlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, Tribunal, agar har qaysi taraf istagan holda yoki Tribunal shunday qaror qabul qilsa, dalillarni taqdim e'tish va/yoki og'zaki bayonot uchun davoning ahamiyatini, shu jumladan yurisdiktsiyaga oid har qanday masalalarни eshitish uchun tergov otkazadi.

24.2

Tribunal taraflar bilan maslahatlashgandan kegin har qanday yig'ilish yoki tergov o'tkaziladigan sanasini, vaqtini va joyini belgilaydi va taraflarga yetarli vaqt ichida xabar beradi.

24.3

Agar biron-bir taraf bunday tergov majlisiga yetarli sabablarsiz kelmasa, Tribunal muhokamani da'vom ettirish va oldida mavjud bo'lgan dalillarga asoslanib qaror chiqarishi mumkin.

24.4

Taraflar o'rtasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, barcha yig'ilishlar va tinglovlar o'zaro o'tkazilib, hakamlik muhokamasi jarayonida foydalilaniladigan har qanday yozuvlar, transkriptlar yoki hujjatlar maxfiy hisoblanadi.

25- Guvohlar

25.1

Har qanday tergov majlisidan oldin Tribunal taraflardan guvohlari kimligi haqida, shu jumladan mutaxassis bolgan guvohlar, va taraflar keltirmoqchi bolgan guvohlarning masalaga aloqadorligi haqida bayonot berishini talab qilishi mumkin.

25.2

Tribunal har qanday tergovda guvohlarni og'zaki dalil berish uchun ruhsat berishi, guvohlarning so'z vaqtini cheklash yoki umuman rad e'tishi mumkin.

25.3

Og'zaki dalillarni taqdim etuvchi guvohlar har qaysi taraf tomonidan, ularning vakillari va Tribunal tomonidan, Tribunal belgilab bergen tarzda so'roq qilinishi mumkin.

25.4

Tribunal guvohlarning shohidligini yozma shaklda yoki imzolangan bayonot, yoki tasdiqlangan vakolatnama yoki boshqa har qanday yozma shaklda qabul qilishi mumkin. 25.2-nizomga asosan har qanday taraf bunday guvohni og'zaki so'rovda ishtirok e'tishni talab qilishi mumkin. Guvoh og'zaki so'rovda ishtirok etmasa, guvohning yozma shohidligini muhimligini Tribunal kerakli deb bilgan darajada e'tiborga olishi, bunday yozma shohidlikni e'tiborga olmasligi yoki bunday yozma shohidlikni umuman ishga taaluqli qogozlar ichidan olib tashlashi mumkin.

25.5

Har qanday taraf va uning vakillari biron bir guvoh yoki potentsial guvohlarni (ushbu partiylar tomonidan jalb e'tilgan holda) og'zaki guvohlik berish uchun tinglovda ishtirok e'tishidan oldin so'roq qilishlari mumkin.

26- Tribunal tomonidan tayinlangan mutahassislar

26.1

Taraflar o'rtasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, Tribunal:

a.

taraflar bilan maslahatlashilgandan so'ng maxsus masalalar bo'yicha hisobot berish uchun mutahassis tayinlashi; va

b.

26.1 (a) Nizomga asosan taraflardan tayinlangan mutaxassisiga biron-bir ma'lumot berishi uchun, tegishli hujjalarni ko'rsatish, tovarlar yoki mol-mulkni tekshirish uchun mutaxassisiga ruxsat berishlarini talab qilish mumkin.

26.2

26.1 (a) Nizomga asosan tayinlangan har qanday mutaxassis Tribunalga yozma ravishda hisobot taqdim etadi. Bunday yozma hisobot olingan taqdirda, Tribunal hisobot nusxasini taraflarga taqdim etadi va taraflarni hisobot bo'yicha yozma sharhlarni taqdim e'tishga taklif qiladi.

26.3

Taraflar o'rtasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, agar Tribunal kerakli deb hisoblasa yoki taraflardan birining talabiga binoan, 26.1 (a) nizomga asoslanib tayinlangan mutaxassis o'zining yozma hisobotini taqdim etganidan son'gra sudda ishtirok e'tishi kerak. Sud majlisida taraflar ushbu mutaxassisni so'roq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

27 Tribunalning qo'shimcha vakolatlari

Taraflar boshqacha kelishib olmagan bolsalar, ushbu Nizomda ko'rsatilgan vakolatlarga qo'shimcha ravishda va hakamlik muhokamalariga nisbatan qo'llaniladigan majburiy amaldagi qonunlar tomonidan taqiqlanmagan hollarda, Tribunal quyidagi huquqlarga ega:

- a. shartnomalarni boshqaradigon qonunlarga asoslanib, har qanday shartnomadagi hatolarni korsatish va tuzatish
- b. ushbu Nizomlarda nazarda tutilgan hollardan tashqari, ushbu Nizomlarga yoki uning ko'rsatmalariga asoslanib belgilangan muddatlarni uzaytiradi yoki qisqartiradi;
- c. Tribunal kerakli yoki maqsadga muvofiq deb bilgan so'rovlarni amalga oshirish;
- d. taraflarga ularning egaligidagi har qanday mol-mulkni yoki narsalarni tekshirish uchun berishga buyurishi;
- e. da'voga sabab bo'lgan yoki uning tarkibiga kiradigon har qanday mol-mulkni saqlash, muhofaza qilish, sotish yoki tasarruf e'tishni buyurish;
- f. Tribunal har qaysi tarafga, Tribunal va boshqa taraflar tomonidan tekshirish uchun, Tribunal ish uchun ahamiyatli deb hisoblagan yoki ishning yakuniy natijasi uchun ahamiyatli deb hisoblagan har qanday hujjat va uning nushalarini topshirishni buyuradi

- g. Hakamlik muhokamasi harajatlari uchun to'lanmagan omonatlarni qaytarish uchun Buyruq yoki qaror chiqarishi;
- h. Taraflardan biri yoki har qanday boshqa shaxsdan tasdiqlangan vakolatnama yoki boshqa shaklda guvohlik berishi uchun ko'rsatma beradi;
- i. Hakamlik sudida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday qarorni, taraflar yoki boshqa shaxs tomonidan mol-mulkni tarqatib yuborilishi natijasida samarasiz deb hisoblanmasligi uchun har qaysi tarafdan ma'lum harakat qilish yoki qilmasligi uchun ko'rsatma beradi;
- j. Tribunalning oz' ihtiyyoriga binoan har qanday qonuniy yoki boshqa xarajatlarini ta'minlash haqida har qaysi tarafga buyruq berish;
- k. har qaysi tarafga hakamlik munozarasiga sababi bo'lgan miqdorni bir qismini yoki to'liq miqdorni ta'minlashi haqida buyruq berishi;
- l. Taraflardan birini ushbu nizomlarga riosa qilmasligi va riosa qilishdan bosh tortishi, yoki Tribunalning buyruqlari va ko'rsatmalariga, yoki biron bir yig'ilish va muhokama majlisida ishtirok e'tish haqida qisman qabul qilgan qarorlariga riosa qilmasligiga qaramay muhokamani davom ettirishga, va bunday bajarimsizlik va riosa qilmaslikka nisbatan Hakamlik Muhokamasi tegishli deb hisoblagan jazo choralarini qo'llaydi
- m. zarurat bo'lgan hollarda, taraflarning topshirilgan arizalarida bevosita taalluqli yoki ochiq bo'limgan har qanday masalani, bunday masala haqida qarshi tarafning ma'lumoti bo'lgan va bunday masalaga qarshi tarafning javob berish uchun yetarli imkoniyat berilgan holda qaror qabul qilish;
- n. hakamlik muhokamasi uchun qo'llaniladigan qonunni belgilaydi; va
- u. har qanday huquqiy yoki boshqa talabni belgilaydi

28-Tribunalning yurisdiktsiyasi

28.1

Har qanday taraf Tribunal tashkil e'tilishidan oldin, hakamlik bitimining mavjudligi yoki haqiqiyligiga yoki SXAMning hakamlik muhokamasini amalga oshirish uchun vakolatiga nisbatan qarshilik korsatgan taqdirda, Kotib bunday e'tirozni sudga yuborish kerakligi yoki kerak emasligi haqida qaror oladi. Agar kotib bunday qaror qabul qilsa, sud *prima facie* sabablar yetarli darajada mavjudligini aniqlagan holda hakamlik muhokamasini davom ettiradi. Agar sud yetarli sabablar mavjudligi haqida qoniqmasa, hakamlik muhokamasi tugatiladi. Kotib yoki Sud tomonidan har qanday muhokamani davom ettirish Tribunalning o'z yurisdiktsiyasi asoslanib qaror qabul qilish vakolatlarini cheklamaydi.

28.2

Tribunal hakamlik bitimining mavjudligi, amal qilish muddati yoki doirasiga nisbatan e'tirozlarni o'z ichiga olgan holda o'z yurisdiktsiyasiga asosan qaror chiqarishi mumkin.

Shartnomaning bir qismini tashkil etadigan hakamlik bitimi, shartnomaning boshqa nizomlaridan alohida va mustaqil deb ko'rildi.

Tribunalning shartnomani bekor va yaroqsiz qilish to'g'risidagi qarori hakamlik bitimining yaroqsizligiga *ipso jure* olib kelmasligi kerak va shartnoma mavjud emas yoki bekor bo'lganligi to'g'risidagi har qanday da'vo asosida Tribunalning yurisdiktsiyasi bitmaydi.

28.3

Tribunalga qarshi har qanday e'tiroz:

a.

Sud yurisdiktsiyasiga ega bo'limganligi haqida, Mudofaa Bayonoti yoki Qarshi Da'vo Mudofaa Bayonotida kechiktirilmasdan aks ettiriladi; yoki

b.

tribunal yurisdiktsiyasining doirasidan tashqariga chiqib ketgan taqdirda, e'tiroz hakamlik muhokamasi davomida 14 kun ichida amalga oshirilishi lozim.

Tribunal kechiktirilishiga yetarli sabab bor deb belgilangan bolsa, ushbu Nizomning 28.3-moddasiga asosan, taraflar tomonidan muddatlardan kechroq bildirilgan e'tirozni qabul qilishi mumkin.

Taraflarning 28.3-nizomga asosan hakam uchun nomzod ko'rsatganligi yoki nomzod chiqarishda ishtirok etganligi sababli, e'tiroz berish huquqini yoqotmaydilar.

28.4

Tribunal 28.3-moddada aytib o'tilgan e'tirozni dastlabki masala sifatida yoki yakuniy qaror sifatida hal qilishi mumkin

28.5

Taraflar mazkur Nizom va amaldagi qonunlar doirasida hisob-kitob qilish maqsadlarida da'vo yoki e'tiroz bildirishlari mumkin

29- Talab va e'tirozlarni dastlabki bosqichda rad e'tish

29.1

Taraflar da'vosini yoki mudofaa ishini muddatidan oldin bekor qilish uchun quyidagilarga asoslanib Tribunalga murojaat qilishlari mumkin:

a.

da'vo yoki mudofaa huquqiy jihatdan ahamiyatga ega emas; yoki

b.

da'vo yoki mudofaa Tribunal mahkamasi vakolatiga kirmaydi.

29.2

29.1-nizomga asosan da'vo yoki mudofaaning muddatidan oldin bekor qilinishi to'g'risidagi ariza murojaatni qo'llab-quvvatlovchi fakt va huquqiy asos bat afsil bayon qilinadi. Ishni muddatidan erta yakunlash to'g'risida ariza bergan taraf, arizani Tribunalga topshirishi bilan birga, arizaning nusxasini qarshi tarafga yuborishi kerak va buni amalga oshirganligi haqida, buni qanday muloqaat vositasi orqali amalga oshirilanligi va qaysi san'ada amalga oshirilanligi haqida Tribunalga malumot berishi kerak.

29.3

Tribunal o'z ixtiyoriga binoan 29.1-nizomga asosan da'vo yoki mudofaani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida arizani qabul qilishi mumkin. Agar ariza qabul qilinsa, Tribunal taraflarga so'z imkoniyatini bergandan so'ng, 29.1-nizomga asosan muddatidan ilgari bekor qilish to'g'risidagi ariza to'liq yoki qisman qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

29.4

Agar arizani korib chiqish davom ettirilsa, qisqacha sabablar bayonoti bilan birga Tribunal arizani korib chiqish uchun buyruq yoki qaror chiqaradi. Ushbu buyruq yoki qaror ariza topshrilgan kundan boshlab 60 kun ichida qabul qilinadi, maxsus hollarda, Kotib ushbu muddatni uzaytirib beradi.

30-Vaqtinchalik va tezkor choralar

30.1

Tribunal taraflarning talabiga binoan, kerakli deb hisoblangan vaqtinchalik choralar yoki boshqa buyruq yoki qaror chiqarishi mumkin. Tribunal vaqtinchalik choralar ko'rili shini so'rigan tarafdan, tegishli choralar taminlanishini ta'lаб qilishi mumkin.

30.2 Vaqtinchalik tezkor choralarini korilishini istagan taraf, Tribunal tashkil e'tilishidan oldin, 1chi ilovaga asosan ariza topshirishi mumkin.

30.3 Tribunal tashkil topishidan avval yoki bundan kegin istisno holatlarda sud hokimiyatiga Vaqtinchalik va tezkor choralar korilishi uchun qilingan talab, ushbu qoidalarga zid kelmaydi.

31. Amaldagi qonunlar, Amiable Compositeur va Ex Aequo et Bono

31.1 Tribunal taraflar tomonidan nizoming mohiyatiga nisbatan tegishli deb kelishib olgan qonun va qoidalarni qo'llanadi. Taraflar bunday qonunlar haqida o'zaro kelishib olmagan bo'lsa, Tribunal nizoming mohiyatiga muvofiq deb bilgan qonunlarni qollaydi.

31.2 Tribunal, taraflar unga bu tarzda harakat qilish uchun bevosita vakolat bergen holdagina, nizoni do'stona vositachi sifatida hal qiladi (*amiable compositeur*) yoki *ex aequo et bono* hal qiladi.

31.3

Barcha holatlarda, Tribunal, agar mavjud bo'lsa, shartnoma shartlariga muvofiq qaror qabul qiladi va savdo-sotiqning amaldagi qurollarini hisobga oladi.

32-Qaror

32.1

Tribunal taraflar bilan maslahatlashgandan kegin va taraflarning taqdim e'tish uchun ishga tegishli va moddiy dalillarga ega emasligiga ishonch hosil qilgandan kegin imkon qadar zudlik bilan muhokamani yopish haqida qaror qabul qilishi kerak. Muhokamani yopilishi to'g'risidagi Trubnalning bayonoti taraflarga va Kotibga xabar qilinadi.

32.2

Tribunal, har qanday qaror qabul qilinguncha o'z ihtiyyoriga ko'ra yoki taraflardan birining talabiga binoan, muhokamani qayta ochishi mumkin. Tribunalning muhokamani qayta ochish to'g'risidagi qarori taraflarga va Kotibga xabar qilinadi. Tribunal har qanday qayta ochilgan muhokamani 32.1-nizomga asosan yopadi.

32.3

Har qanday qarorni qabul qilishdan avval, Tribunal bunday qaror loyihasini Kotibga taqdim etadi. Kotib vaqt muddatini uzaytirmagan holatda yoki taraflar o'rasida boshqacha kelishilmagan bo'lsa, Tribunal qaror loyihasini Kotibga Tribunal muhokamasini yopib qo'ygan kundan boshlab 45 kundan kechiktirmay taqdim etadi. Kotib imkon qadar qisqa vaqt ichida qarorni shakliga kiritish mumkin bolgan o'zgarishlarni taklif qilishi mumkin va Tribunalni muhokamani hal qilish erkinligiga ta'sir qilmagan holda, Tribunalning e'tiborini qarorning muhim ahamiyatga ega bolgan moddalariga qaratishi mumkin. Kotib qarorni shaklini tasdiqlamaguncha Tribunal tomonidan hech qanday qaror qabul qilinmaydi.

32.4

Qaror yozma shaklda bo'lib, agar taraflar o'zaro aksi haqida kelishib olmagan bolsalar qarorga asos bolgan sabablarni o'z ichiga olishi kerak.

32.5

Taraflar o'rasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, Tribunal har xil masalalar bo'yicha turli vaqtarda alohida qarorlar qabul qilishi mumkin.

32.6

Har qaysi hakam, buning uchun oqilona imkoniyat berilgandan song', qarorni qabul qilishda hamkorlik qilishdan bosh tortsa, qolgan hakamlar muhokamani o'zлari davom ettirishi mumkin. Qolgan hakamlar, bunday bosh tortish yoki bajarimsizlik haqida taraflar, Kotib va ketgan hakamga yozma shaklda xabar beradi.

Hakamlardan biri bo'lmagan taqdirda hakamlik muhokamasini davom ettirish yoki hal qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilishda, qolgan hakamlarning boshqa sabablar qatori, muhokama bosqichi, ishtirok e'tishdan bosh tortgan va voz kechgan hakamning sabablarini

tushuntirishi, va agar mavjud bo'lsa, qolgan hakamlarni o'zлari ishni davom e'tish qarorni majburiyligiga ta'sir korsatishi mumkin yoki mumkin emasligini e'tiborga olishadi. Qolgan hakamlar har qanday qarorni qabul qilishda, muhokamani yuritishdan bosh tortgan hakamsiz davom e'ttirish uchun sababni tushuntirib berishi kerak.

32.7

Agar bir nechta hakam mavjud bo'lsa, Tribunal ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi. Kopchilik ovozi bilan qaror qabul qilinmasa, raislik qiluvchi hakam yakka o'zi Tribunal uchun qarorini qabul qiladi.

32.8

Qaror Kotibga topshiriladi, u tasdiqlangan nusxalarini taraflarga hakamlik xarajatlarini to'la hajmda to'langan holda tarqatadi.

32.9

Tribunal muhokama mavzusi bolgan har qanday miqdorga, taraflar kelishib olgan narx boyicha oddiy yoki mukammal foizlarni qo'yishi mumkin, agar bunday kelishuv bo'lmasa Tribunal tegishli bo'lgan muddatni belgilab, har qanday davrga nisbatan oddiy yoki mukammal (aralash) foizlarni belgilashi mumkin.

32.10

Taraflar kelishuv bitimini qabul qilgan taqdirda va agar taraflar shunday hohlasalar, Tribunal qarorni kelishilgan asosda qabul qilishi mumkin. Agar taraflar kelishuv asosida qaror olishni talab qilmasalar, taraflar, hakamlik muhokamasining barcha xarajatlarini to'liq to'langandan song'ra, Kotibga kelishuvga erishilganligini tasdiqlashlari kerak, va Tribunal vazifalaridan ozod e'tilganligi haqida malumot berishlari kerak.

32.11

33-nizomning 1chi moddasiga asosan, ushbu Nizomlarga asoslanib muhokamaga rozi bolgan holda, taraflar har qanday qaror qabul qilgan sanadan boshlab taraflar uchun yakuniy va majburiy bo'lib, qarorni darhol va kechiktirmasdan bajarish majburiyatini oladilar. Shuningdek taraflar, har qanday davlat sudiga yoki boshqa ko'rib chiqilishi uchun sud hokimiyatiga o'zlarining murojaat qilish huquqlaridan voz kechadilar.

32.12

SXAM taraflar va Tribunallarning roziligi bilan har qanday qarorni taraflarning ismlari va boshqa shaxsiy ma'lumotlarini olib tashlagan holda e'lon qilishi mumkin.

33-nizom: Qarorni tuzatish, qarorlarni talqin qilish va qo'shimcha qarorlar

33.1

Qaror qabul qilingan kundan boshlab 30 kun ichida, taraf Kotibga va qarshi tarafga yozma ravishda Tribunal qarorida, xatolik yoki matn terish xatosi, yoki shunga o'xshash xatolarni tuzatishni so'rashi mumkin. Agar Tribunal talabni asosli deb hisoblasa, u hato talab qabul

qilingan kundan boshlab 30 kun ichida tuzatiladi. Dastlabki qarorda yoki alohida memorandumda tuzilgan har qanday tuzatish qarorning bir qismini tashkil etadi.

33.2

Tribunal 33.1-nizomda ko'rsatilgan turdag'i har qanday xatoni o'z tashabbusi bilan qarorni qabul qilgan kundan boshlab 30 kun ichida tuzatishi mumkin.

33.3

Qaror qabul qilingandan song' 30 kun ichida, taraf, yozma shaklda Kotibga va qarshi tarafga hakamlikda taqdim e'tilgan ammo asosiy qarorda e'tiborga olinmagan da'voga nisbatan Tribunal qo'shimcha qaror qabul qilishini so'rab murojaat e'tishlari mumkin. Agar Tribunal bunday murojatni asosli deb hisoblasa, u qo'shimcha murojat qabul qilingan kundan boshlab 45 kun ichida amalga oshiradi.

33.4

Qaror qabul qilingan kundan boshlab 30 kun ichida, taraflardan biri Kotibga va qarshi tarafga yozma ravishda xabar bergan holda, Tribunal qarorini talqin qilishni so'rashi mumkin. Agar Tribunal so'rovni asosli deb hisoblasa, u so'rovni olganidan kegin 45 kun ichida yozma shaklda sharhni taqdim e'tishi kerak. Bunday talqin qarorning bir qismini tashkil etadi.

33.5

Kotib, zarurat tug'ilganda, ushbu nizomga asoslanib, Tribunal qarorni tog'irlash, talqin qilish va qoshimcha qarorlar olishi uchun belgilangan muddatlarni uzaytirishi mumkin.

33.6

32-nizomning moddalari zarur yoki tegishli o'zgarishlar kiritilishi bilan qarorni tuzatish, qarorni talqin qilish va boshqa har qanday qo'shimcha qarorga nisbatan ayni shaklda qo'llaniladi.

34-nizom: To'lovlari va depozitlar

34.1

Tribunal to'lovlari va SXAM to'lovlari hakamlik muhokamasi boshlangan vaqtida amaldagi Tolovlar jadvaliga muvofiq belgilanadi. Tribunal tarkibi tashkil topgunga qadar taraflar Tribunal to'lovlarini amalga oshirish uchun boshqa uslublarni qabul qilishi mumkin.

34.2

Kotib hakamlik xarajatlariga to'lanadigan depozitlar miqdorini belgilaydi. Agar Kotib boshqacha yollanma bermasa, bunday depozitlarning 50 foizi da'vogar tomonidan to'lanadi, qolgan 50 foizi esa javobgar tomonidan to'lanadi. Kotib da'vo va qarshi da'vo xarajatlari uchun alohida depozitlarni belgilashi mumkin.

34.3

Da'veoning miqdori yoki qarshi da'veoning miqdori tolaniishi kerak bolgan vaqtida miqdor

hanuz aniqlanmagan bolsa, muhokama xarajatlarini Kotib tomonidan tahminan vaqtinchalik baholanadi. Bunday tahminlar muhokamaning mazmuni va holatiga asoslangan bo'lishi mumkin. Ushbu tahminiy hisob keginchalik paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar asosida tarttibga solinishi va togirlanishi mumkin.

34.4

Kotib vaqtı-vaqtı bilan taraflarga hakamlik xarajatlarini qoplash uchun qo'shimcha depozitlar to'lashlari uchun yollanmalar berishi mumkin.

34.5

Taraflar muhokama xarajatlarini birgalikda va alohida tolashga javobgar bo'ladilar. Har qaysi taraf, qarshi taraf o'z ulushini to'lamagan taqdirda, barcha hakamlik muhokasi depozitlarini to'lashi mumkin.

34.6

Agar taraflar Kotib tomonidan belgilangan mablag'larni to'liq yoki qisman to'lamasa:

a.

Tribunal o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin va Kotib SXAMning hakamlik muhokamasini to'liq yoki qisman to'xtatishi mumkin; va

b.

Kotib Tribunal bilan maslahatlashilgandan kegin (agar tashkil topgan bo'lsa) va taraflarni xabardor qilgandan so'ng, shunday muddat belgilashi mumkin-ki, ushbu muddat yakuniga yetganda tegishli da'volar yoki qarshi da'volar bekor qilingan deb hisoblanadi. Tarlaflarning ushbu da'vo yoki qarshi da'volarni boshqa muhokamaga qayta ko'rib chiqilishi uchun kiritish haquqiga zid kelmaydi.

34.7

Barcha holatlarda hakamlik sudining xarajatlari muhokama oxirida Kotib tomonidan belgilanadi. Agar da'vo va/yoki qarshi da'vo miqdori aniqlanmagan bo'lsa, Kotib, 35 nizomda ko'rsatilganidek, hakamlik sud xarajatlarini o'z ixtiyori bilan aniqlaydi. Kotib muhokamaning barcha holatlarini, shu jumladan hakamlik muhokamasi qaysi bosqichida yakunlanganini hisobga oladi. Agar hakamlik muhokamasi uchun sarflangan mablag'lar qo'yilgan depozitlardan kam bo'lsa, taraflar kelishuvi asosida, yoki kelishib olmagan bo'lsalar topshirilgan depozitlarga nisbatan bir xil proporciyada qaytarib berilishi kerak.

34.8

Hakamlik sudloviga tegishli bo'lgan barcha depozitlar SXAM nomiga otkaziladi va saqlanadi. Bunday depozitlarga keladigan har qanday foyda foizlar SXAM tomonidan saqlanadi.

34.9

Istisno hollarda, Kotib SXAM ma'muriy to'lovlari doirasida, tegishli tolovlar jadvalida

belgilangan to'lovlarga qo'shimcha ravishda tolov amalga oshirish uchun taraflarni yollantirishi mumkin.

35-nizom: Hakamlik Xarajatlari

35.1

Taraflar o'rasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, Tribunal o'z qarorida hakamlik muhokamasining xarajatlarini umumiyligini miqdorini belgilaydi. Taraflar o'rasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, Tribunal taraflar o'tasida hakamlik sud xarajatlarini taqsimlab belgilab beradi.

35.2

«Hakamlik xarajatlari» atamasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Tribunalning to'lovlari va xarajatlari hamda o'rini bo'lsa, Favqulodda hakam uchun to'lovlari va xarajatlari;

b.

SXAM ma'muriy to'lovlari va xarajatlari; va

c.

Tribunal tomonidan tayinlangan har qanday mutaxassisning va Tribunal tomonidan talab qilinadigan har qanday yordam uchun xarajatlar.

36-nizom: Tribunal Tolovlari va Xarajatlari

36.1

Tribunal to'lovlari Kotib tomonidan tegishli tolvar jadvaliga yoki tegishli holatlarda taraflar tomonidan 34.1-nizomga muvofiq kelishilgan uslubda va hakamlik muhokamasining jarayoni bosqichiga asosan belgilanadi. Istisno hollarda, Kotib joriy Tolovlar Jadvalida belgilangan to'lovga qo'shimcha to'lovni to'lashi kerakligini belgilaydi.

36.2

Tribunalning tegishli, majburiy va zarur xarajatlari Amaliy Tavsiyalar hujjatiga asoslanib qaytarilishi kerak.

37-nizom: Taraflarning yuridik va boshqa xarajatlari

Tribunal o'zining qarorida taraflardan birining qonuniy yoki boshqa xarajatlarini barchasi yoki bir qismini qarshi taraf tomonidan qoplanishi haqida buyruq berish huquqiga ega.

38-nizom: Ma'suliyatni tugallanishi

38.1

Har qanday hakam, shu jumladan, har qanday favqulodda hakam, Tribunal tomonidan tayinlangan har qanday shaxs, jumladan, ma'muriy kotib va mutaxassis, prezident, sudning a'zolari, shuningdek, SXAM direktorlari, xodimlari ushbu qoidalarga muvofiq SXAM

tomonidan boshqariladigan har qanday muhokama bilan bog'liq beparvolik, harakatlar yoki harakatsizlik uchun hech qanday shaxsga javobgar bo'lmaydi.

38.2

SXAM, jumladan, Prezident, sud a'zolari, direktorlar, amaldorlar, ishchilar yoki biron bir hakam, jumladan, har qanday favqulodda hakam va sud tomonidan tayinlangan har qanday shaxs, jumladan, har qanday ma'muriy kotib va mutaxassis, Ushbu nizomlarga asosan SXAM tomonidan boshqariladigan har qanday hakamlik bilan bog'liq hech qanday bayonot berish majburiyatga ega emas. Ushbu nizomlarga asosan hech qaysi taraf SXAMning har qanday a'zosini, direktorini, ofitserini, SXAM xodimini yoki biron bir hakamlik sudyasini, shu jumladan, har qanday favqulodda hakam va Tribunal tomonidan tayinlangan har qanday shaxsni, jumladan, har qanday ma'muriy kotibni va mutaxassisni SXAM tomonidan boshqariladigan har qanday hakamlik muhokamasi bilan bog'liq har qanday jarayonida guvohlik uchun jalb qila olmaydi.

39: Maxfiylik

39.1

Taraflar orasida yoki taraflar va har qanday hakam orasida, shu jumladan Favqulodda hakam va Tribunal tomonidan tayinlangan har qanday shaxs, jumladan, har qanday ma'muriy kotib va mutaxassis orasida boshqacha kelishilmagan bo'lsa har qanday shartlarda muhokama bilan bog'liq barcha masalalar va qaror maxfiy saqlanishi kerak. Tribunal muhokamalari va uchrashuvlari maxfiy bo'lishi kerak.

39.2

Taraflar orasida yoki taraflar va har qanday hakam orasida, shu jumladan Favqulodda hakam va Tribunal tomonidan tayinlangan har qanday shaxs, jumladan, har qanday ma'muriy kotib va mutaxassis orasida boshqacha kelishilmagan bo'lsa, taraflarning oldindan yozma roziligidisiz, uchinchi shaxsga muhokama bilan bog'liq masalar oshkor qilinmaydi. Quyidagi xolatlar bu qoidadan istisno:

a.

Qarorni bajarilishi yoki qarorga qarshi da'vo qilish uchun har qanday davlatning har qanday vakolatli sudiga ariza berish maqsadida;

b.

vakolatli sudning talabiga yoki qaroriga asosan;

c.

qonuniy huquq yoki qarorni ijro e'tilishini ta'minlash maqsadida;

d.

bunday oshkoralikni amalga oshiruvchi tomon uchun majburiy bo'lgan, har qanday davlat qonunlarining qoidalariга rioya qilish maqsadida, yoki biron bir tartibga solish organining yoki boshqa organ talabiga binoan,

e.

Taraflardan biri tomonidan qarshi taraflarga tegishli ravishda ogohnoma berilgandan song'

ushbu tarafning arizasi bo'yicha Tribunalning buyrug'iga asosan; yoki f.

ushbu 7-chi yoki 8-nizomlariga asoslanib topshirilgan har qanday Ariza uchun.

39.1-nizomga asosan «muhokamani yuritishga taalluqli masalalar» olib borilayotgan hakamlik muhokamasidagi muzokaralar, dalillar va boshqa materiallar va muzokaralar davomida qarshi taraf tomonidan topshirilgan barcha hujjatlar yoki qarorni olishdan kelib chiqadigan barcha hujjatlarni o'z ichiga oladi; lekin ommaviy e'tiborda bo'lган har qanday hujjat bundan istisno.

39.4

Tribunal, ushbu Nizomning moddalariga rioya qilinmagan taqdirda, tegishli choralar ko'rishga, jumladan, qaror berishga yoki sanktsiyalar va xarajatlar uchun qaror chiqarishga qodir.

40-nizom: Prezidentning, sudning va Kotibning qarorlari

40.1 Ushbu nizomlarda aytib o'tilganlardan tashqari, Prezident, Sud va Kotibning muhokamaga taalluqli barcha masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlari taraflar va Tribunal uchun qat'iy va majburiydir. Agar sud boshqa ko'rsatma bermasa yoki ushbu Nizomlarda nazarda tutilgan bo'lmasa, Prezident, Sud va Kotib bunday qarorlarni qabul qilishda asos bo'lган sabablarni berishi talab qilinmaydi. Taraflar, sudning muhokamasi va muzokaralari maxfiyligini qabul etadi.

40.2

16.1-nizom va 28.1- nizomlariga rioya qilgan holda, taraflar har qanday davlat sudiga yoki boshqa sud hokimiyatiga Prezident, Sud va Kotibning qabul qilgan qarorlari yuzasidan apellyatsiya yoki qayta ko'rib chiqish huquqidан voz kechadilar.

41- Umumiy moddalar

41.1

Ushbu Nizomlarning moddalarini, yoki amaldagi har qanday tegishli bo'lган qoidalar, Tribunal tomonidan taqdim e'tilgan har qanday yo'llanmani yoki hakamlik bitimida Tribunal tarkibini tashkil topishi haqidagi talablariga rioya qilmaslik to'g'risida zudlik bilan da'vo arizasini topshirmagan va hakamlik muhokamasini davom e'ttirgan har qanday shaxs e'tiroz qilish huquqidан voz kechgan hisoblanadi.

41.2

Prezident, Sud, Kotib va Tribunal mazkur Nizomlarda ko'zda tutilmagan barcha masalalarda, ushbu Nizomlarning ruhida harakat qiladi va hakamlik sudining adolatli, tezkor va tejamli xulosasini ta'minlash uchun har qanday oqilona harakatni amalga oshiradi.

41.3

Ushbu Nizomlarning ingliz tilidagi nashri va ushbu Nizomlarning nashr e'tilishi boshqa tildagi nashrlari o'rtasida biron bir nomuvofiqlik bo'lsa, ingliz tilidagi nashr ustunlikka ega

bo'ladi.

SCHEDULE 1
EMERGENCY ARBITRATOR

1-chi Ilova

Favqulodda vaqtinchalik yordam istagan taraf, Tribunal tarkibi tashkil topishidan avval, Muhokamaga oid arizani topshirish bilan bir vaqtda yoki keginroq, Kotib bilan favqulodda vaqtinchalik yordamni olish uchun ariza berishi mumkin. Taraf favqulodda vaqtinchalik yordam uchun ariza bergen bir vaqtida, ariza nusxasini barcha qarshi taraflarga yuborishi kerak. Favqulodda vaqtinchalik yordamni olish uchun ariza quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a.
so'raladigan yordamning mazmuni;
 - b.
taraf bunday yordam so'rash imtiyozga ega bo'lishining sabablari; va
 - c.
barcha taraflarga arizaning nusxasi yoki, barcha qarshi taraflarga ariza nusxasi yoki xabarnoma berish uchun vijdonan qabul qilingan qadamlar to'g'risida tushuntirish berilganligi to'g'risidagi bayonot.
- 2.
- Favqulodda vaqtinchalik yordam bo'yicha ariza quyidagi nizomlarga asosan Favqulodda hakamning muhokama olib borishida to'lov va harajatlari uchun 1chi Jadvalga asosan qaytarib berilmaydigan ma'muriy xaq bilan birga topshiriladi. Tegishli xollarda Kotib da'vogardan qoshimcha miqdorda depozit talab qilishi mumkin. Agar qo'shimcha depozitlar Kotib tomonidan belgilangan muddatda to'lansasa, ariza bekor qilingan deb hisoblanadi.
- 3.
- Prezident, SXAM favqulodda vaqtincha yordam uchun arizani qabul qilishi kerak deb bilsa, bunday arizani Kotib qabul qilgandan son'g, ma'muriy yig'im va depozitlarni to'lanigandan kegin bir kun ichida Favqulodda hakamni tayinlashga harakat qilishi kerak.
- 4.
- Agar taraflar hakamlik o'rni haqida kelishib olgan bo'lsalar, bunday orin favqulodda vaqtinchalik sud ishlarini olib borish uchundir. Agar o'rtada bunday kelishuv bo'lmasa, favqulodda vaqtinchalik sud ishlarini olib borish joyi Singapur bo'lib, 21.1-nizomga asosan Tribunal o'rnini aniqlashga zid kelmaydi.

5.

Saylovini qabul qilgunga qadar, Favqulodda hakam uni o'zining beg'arazligi yoki mustaqilligi to'g'risida asosli shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday holatlarda Kotibga oshkor qilishi kerak. Favqulodda hakam tayinlanishiga qarshi har qanday da'vo, Kotib favqulodda hakam tayinlanishi va oshkor e'tilgan holatlar haqida taraflarga e'lon qilganidan kegin ikki kun ichida amalga oshirilishi kerak.

6.

Favqulodda hakam, taraflar o'rtasida boshqacha kelishuv bo'lмаган taqdirda, muhokama bilan bog'liq kelajakdagi har qanday muhokamalarda hakamlik qila olmaydi.

7.

Favqulodda hakam, imkon qadar qisqa muddatda, lekin har qanday holatda, tayinlangan kundan boshlab ikki kun ichida favqulodda vaqtinchalik yordam olish uchun topshirilgan arizalarni ko'rib chiqish uchun jadval tuzadi. Bunday reja taraflarning tinglanishi uchun qulay imkoniyatni ta'minlaydi.

Taraflarni tinglanishi yuzma yuz e'mas balki telefon yoki videokonferentsiya yoki yozma taqdimnomalar orqali muqobil jihatida taqdim e'tilishi mumkin. Favqulodda hakam ushbu qoidalarga asosan Tribunal tarafidan berilgan vakolatlar, shu jumladan Tribunalning vakolatlariga zid kelmagan holda, o'z yurisdiktsiyasi bilan boshqarish vakolatiga ega.

8.

Favqulodda hakam zarur ko'rsa vaqtinchalik yordam, jumladan, har qanday tinglashgacha bo'lgan dastlabki buyruqlar, telefon yoki videokonferentsiya yoki taraflarning yozma taqdimnomalarini topshirishi uchun buyruq berish huquqiga ega. Favqulodda hakam o'z qarorini qabul qilishiga sabablarni yozma ravishda bayon qiladi. Favqulodda yetarli sabablar bo'lgan holda, hakam dastlabki qarori, vaqtinchali qarorni yoki Hakamlik Qarorini o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin.

9.

Favqulodda hakam vaqtinchalik buyruq yoki qarorni o'zi tayinlagan kundan e'tiboran 14 kun ichida qabul qiladi, istisno hollarda, Kotib bu muddatni uzaytiradi. Favqulodda hakam Kotib shaklini tasdiqlamagunga qadar dastlabki buyruq yoki qaror chiqara olmaydi.

10.

Tribunal tashkil e'tilgandan kegin Favqulodda hakam hech qanday harakat qilishga qodir emas. Tribunal favqulodda hakam tomonidan qabul qilingan har qanday vaqtinchalik buyruq yoki qarorni, shu jumladan o'zining yurisdiktsiyasiga oid qarorni qayta ko'rib chiqishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin. Tribunal favqulodda hakamning bergen sabablari bilan chegaralanmaydi. Favqulodda hakam tomonidan chiqarilgan har qanday vaqtinchalik buyruq yoki qaror, quyidagi har qanday holatda; tribunal tarkibi ushbu qaror chiqqandan son'g 90 kun ichida tashkil topmasa, yoki yakuniy qarorni Tribunal qabul qilsa, yoki da'vo arizasi bekor qilingan taqdirda oz kuchini yoqotadi.

11.

Favqulodda hakamning har qanday dastlabki buyrug'i yoki qarori, vaqtinchalik xavfsizlik choralarini qo'llashni talab qilgan tarafning talabiga binoan qabul qilinishi mumkin.

12.

Taraflar, ushbu 1-ilovaga asosan favqulodda hakamning buyrug'i yoki qarori chiqarilgan sanadan boshlab barcha taraflarga nisbatan majburiy bo'lishi va bunday vaqtinchalik olingan qarorni kechiktirmasdan amalga oshirish majburiyatini oladilar. Taraflar, shuningdek, qarshi da'vo, qarorni qayta ko'rib chiqilishi uchun har qanday davlat sudiga yoki boshqa sud hokimiyatiga murojaat qilish huquqlaridan voz kechadilar.

13.

Ushbu 1-ilovaga binoan har qanday murojaat bilan bog'liq xarajatlar dastlab Favqulodda hakam tomonidan taqsimlanishi mumkin, va bunday xarajatlarning aniq va yakuniy taqsimlanishini Tribunal tomonidan amalga oshiriladi.

14.

Ushbu nizomlar, 1-chi ilovasiga asosan, bunday ishlarning dolzarbligini inobatga olgan holda, har qanday muhokamaga muvofiq qo'llaniladi. Favqulodda hakam ushbu Nizomlarning qaysi tarzda qo'llanishi kerakligi haqida qaror qabul qilishi va bunday qaror yakuniy hisoblanib, apellyatsiya shikoyati, qayta ko'rib chiqish yoki qarshi da'vo qilish uchun huquq bermaydi. Kotib ushbu Nizomlarga asosan 30.2 nizom va 1-chi ilovaga asosan yuritilayotgan muhokamalarda har qanday muddat chegaralarini qisqartirishi mumkin.

To‘lovlar to‘g‘risida Nizom

(*Barcha summalar Singapur dollarida ko‘rsatilgan*)

Ushbu Nizom 2016 yilning 1-avgustidan boshlab kuchga kirgan va 2016 yilning 1-avgustidan qo‘zg‘atilgan barcha ishlar uchun amal qiladi.

ISH QO‘ZG‘ATISH HAQI (qaytarilmaydigan summa)

Singapurlik tomonlar	S\$2,140*
Xorijlik tomonlar	S\$2,000

+ *Ish qo‘zg‘atish haqi SXAM tomonidan boshqariladigan barcha arbitraj ishlari, shuningdek har bir da‘vo va qarshi da‘vo uchun amal qiladi.*

* *To‘lov 7% tovar va xizmat solig‘ini o‘z ichiga oladi.*

ADMINISTRATIV TO’LOVLAR

Qo‘yidagi shkala asosida hisoblab chiqilgan Administrativ to‘lovlar SXAM tomonidan boshqariladigan barcha arbitraj ishlariga taalluqli va SXAMga to‘lanadigan to‘loving maksimal qiymatini aks ettiradi.

Nizo summasi (Singpur dollarida)	Administrativ to‘lov (Singpur dollarida)
50,000 gacha	3,800
50,001 dan 100,000 gacha	$3,800 + 2.200\%$ agar summa 50,000 dan oshsa
100,001 dan 500,000 gacha	$4,900 + 1.200\%$ agar summa 100,000 dan oshsa
500,001 dan 1,000,000 gacha	$9,700 + 1.000\%$ agar summa 500,000 dan oshsa
1,000,001 dan 2,000,000 gacha	$14,700 + 0.650\%$ agar summa 1,000,000 dan oshsa
2,000,001 dan 5,000,000 gacha	$21,200 + 0.320\%$ agar summa 2,000,000 dan oshsa
5,000,001 dan 10,000,000 gacha	$30,800 + 0.160\%$ agar summa 5,000,000 dan oshsa
10,000,001 dan 50,000,000 gacha	$38,800 + 0.095\%$ agar summa 10,000,000 dan oshsa

50,000,001 dan 80,000,000 gacha	$76,800 + 0.040\%$ agar summa 50,000,000 dan oshsa
80,000,001 dan 100,000,000 gacha	$88,800 + 0.031\%$ agar summa 80,000,000 dan oshsa
100,000,000 dan yuqori	95,000

Administrativ to'lov quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

- Hakamlar hay'ati uchun to'lovlar va xarajatlar;
- Har qanday sud tinglovlari xizmatlari va jihozlari bilan bog'liq xarajatlar (masalan, so'roq xonasi va jihozlari, protokol yuritish va tarjima xizmatlari); va
- SXAMning ma'mariy xarajatlari

SXAM barcha ishlar uchun S\$3,800 miqdoridagi minimal to'lovni undiradi, agar Kotib boshqacha to'lov to'g'risida qaror qabul qilmasa.

HAKAMLAR ISH HAQI

Mazkur Reglament doirasida olib boriladigan va boshqariladigan hakamlik ishlari quyidagi jadvalda belgilangan to'lovlар har bir hakamga to'lanadigan maksimum qiymatni tashkil qiladi; agar tomonlar 34.1 qoidaga binoan hakamlar tarkibi uchun to'lovning boshqa turiga kelishmagan bo'lsa:

Nizo summasi (S\$)	Hakamning ish haqi (S\$)
50,000 gacha	6,250
50,001 dan 100,000 gacha	$6,250 + 13.800\%$ agar summa 50,000 dan oshsa
100,001 dan 500,000 gacha	$13,150 + 6.500\%$ agar summa 100,000 dan oshsa
500,001 dan 1,000,000 gacha	$39,150 + 4.850\%$ agar summa 500,000 dan oshsa
1,000,001 dan 2,000,000 gacha	$63,400 + 2.750\%$ agar summa 1,000,000 dan oshsa
2,000,001 dan 5,000,000 gacha	$90,900 + 1.200\%$ agar summa 2,000,000 dan oshsa
5,000,001 dan 10,000,000 gacha	$126,900 + 0.700\%$ agar summa 5,000,000 dan oshsa
10,000,001 dan 50,000,000 gacha	$161,900 + 0.300\%$ agar summa 10,000,000 dan oshsa

50,000,001 dan 80,000,000 gacha	$281,900 + 0.160\%$ agar summa 50,000,000 dan oshsa
80,000,001 dan 100,000,000 gacha	$329,900 + 0.075\%$ agar summa 80,000,000 dan oshsa
100,000,001 dan 500,000,000 gacha	$344,900 + 0.065\%$ agar summa 100,000,000 dan oshsa
500,000,000 dan yuqori	$605,000 + 0.040\%$ agar summa 500,000,000 dan oshsa va 2,000,000 dan yuqori bo'lmasa

FAVQULODDA TEZKOR TO'LOVLAR

Quyidagi to'lovlar 30.2 qoidaga hamda ushbu Nizomning 1-ilovasiga binoan favqulodda tezkor to'lovlar uchun topshirilgan arizalar doirasida amalga oshiriladi:

30.2 qoidaga va 1-ilovaga binoan topshiriladigan arizalar quyidagi to'lov bilan birgalikda qabul qilinadi:

1. Favqulodda hakam tayinlash uchun administrativ to'lov (qaytarib berilmaydi)

Singapurlik tomonlar	S\$5,350*
Xorijlik tomonlar	S\$5,000

* To'lov 7% tovar va xizmat solig'ini o'z ichiga oladi.

2. Favqulodda hakamning ish haqi va depozitlar: Favqulodda Hakamning to'lov va xarajatlari uchun depozitlar S\$30,000 hajmda belgilanadi, agar Kotib mazkur Reglamentning 1-ilovasiga binoan boshqacha to'lov to'g'risida qaror qabul qilmasa. Favqulodda Hakamning ish haqi S\$25,000 hajmda belgilanadi, agar Kotib mazkur Reglamentning 1-ilovasiga binoan boshqacha to'lov to'g'risida qaror qabul qilmasa.

E'tiroz arizasini ko'rib chiqish to'lovi (qaytarib berilmaydi)

E'tiroz arizasini topshiradigan tomon 15.3 qoidaga binoan quyidagi to'lovnni amalga oshirishi kerak:

Singapurlik tomonlar	S\$8,560*
Xorijlik tomonlar	S\$8,000

* To'lov 7% tovar va xizmat solig'ini o'z ichiga oladi.

BOSHQA TURDAGI TO'LOVLAR

ARB-MED-ARB bo'yicha to'lovlar

Arbitraj	S\$2,000
----------	----------

Arb-Med-Arb	Singapurlik tomonlar	SXAM S\$2,140* + SIMTS S\$1,000 = S\$3,140
	Xorijlik tomonlar	SXAM S\$2,000 + SIMTS S\$1,000 = S\$3,000

* To'lov 7% tovar va xizmat solig'ini o'z ichiga oladi.

Tayinlash to'lovi (qaytarib berilmaydi)

Tayinlash to'lovi maxsus hakam(lar)ning muayyan ishga tayinlanishi to'g'risida iltimosnomalar kiritilganda amalga oshiriladi. To'lovnini maxsus hakamning tayinlanishini iltimos qilayotgan tomon amalga oshiriladi. Maxsus hakamni tayinlash iltimosnomasi quyigadi belgilangan to'lov bilan birgalikda topshiriladi:

	1 hakam	2 hakam	3 hakam
Singapurlik tomonlar	S\$3,210*	S\$4,280*	S\$5,350*
Xorijlik tomonlar	S\$3,000	S\$4,000	S\$5,000

* To'lov 7% tovar va xizmat solig'ini o'z ichiga oladi.

SUD XARAJATLARINI VA TO'LOVLARINI BAHOLASH YOKI ANIQLASH

Arbitraj jarayoni so'ngida, yoki arbitraj jarayoni davomida biror bir masala hal qilingandan so'ng, hakam odatda bir tomonning yuridik xarajatlarini ikkinchi tomon (to'liq yoki qisman) qoplashi uchun buyruq chiqaradi. Odatda hakam to'lanadigan xarajatning miqdorini belgilaydi.

SXAM hakamlar shunday yo'l tutishini tavsiya qiladi. Ammo hakam bunday yo'l tutmasa va tomonlar xarajatlarning miqdori to'g'risida kelishuvga erisha olmasa, tomonlarning xarajatlari miqdorini aniqlab berish uchun SXAM kotibiga murojaat qilishlari mumkin. Bu jarayon ba'zan xarajatlar «taksatsiyasi» deb ataladi. Kotibning xizmatlarini so'rab murojaat qilgan tomon, qoplanishi da'vo qilinayotgan xarajatlar miqdoridan kelib chiqqan holda xizmat haqi to'laydi.

Nizo summasi (S\$)	Administrative xarajatlar (S\$)
50,000 gacha	5,000
50,001 - 100,000	5,000 + 2% (50,000 dan oshadigan summadan)
100,001 - 250,000	6,000 + 1.5% (100,000 dan oshadigan summadan)
250,001 - 500,000	8,250 + 1% (250,000 dan oshadigan summadan)
500,001 - 1,000,000	10,750 + 0.5% (500,000 dan oshadigan summadan)
1,000,000 dan yuqori	13,250 + 0.25% (1,000,000 dan oshadigan summadan)
Maksimum	25,000

- To'lov taksatsiya xizmati uchun murojaat qilingan vaqtning o'zida amalga oshiriladi
- Yuqorida keltirilgan to'lovlar hajmi solinishi mumkin bo'lgan 7% lik tovar va xizmat solig'ini o'z ichiga olmaydi
- Yuqorida keltirilgan baholash va taksatsiya shkalasi 2015 yilning 1 avgustidan amal qiladi.

SXAMNING ARBITRAJ TO‘G‘RISIDAGI STANDART BANDI

(2015 yilning 1- sentyabridan amalda)

Xalqaro bitimlarni tuzayotganda, biz tomonlarga quyidagi arbitraj bandini kiritishni tavsiya qilamiz:

Ushbu shartnomaga oid va u bilan bog‘liq har qanday nizo, shuningdek uning mavjudligi, haqiqiyligi yoki tugatilishi to‘g‘risidagi har qanday masala Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi (SXAM) tomonidan boshqariladigan hakamlik sudiga murojaat qilish orqali ko‘rib chiqiladi va to‘lig‘icha hal etiladi, tegishli paytda amalda bo‘lgan Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi Reglamenti (SXAM Reglamenti) qoidalari havola orqali mazkur bandning qismi hisoblanadi.

Arbitraj joyi [Singapur].*

Arbitraj tarkibi _____ ** hakamlardan iborat bo’ladi.

Arbitraj jarayoni tili _____ bo’ladi.

AMALDAGI QONUNCHILIK TO‘G‘RISIDAGI BAND

Tomonlar, shuningdek, amaldagi qonunchilik to‘g‘risida ham band kiritishlari kerak. Band quyidagicha bo‘lishi tavsiya etiladi:

Mazkur shartnoma _____ *** qonunlari tomonidan tartibga solinadi.

* Tomonlar arbitraj uchun o‘zлari tanlagan joyni belgilashlari kerak. Agar tomonlar Singapurdan boshqa joyni tanlashni ixtiyor qilsalar, “[Singapur]”ni o‘zлari tanlagan shahar va mamlakatga o‘zgartirishlari kerak (masalan, “[Shahar, Mamlakat]”).

** Toq sonni ko‘rsatish kerak — bir yoki uch nafar.

*** Mamlakat yoki yurisdiksiyani ko‘rsating.

TEZLASHTIRILGAN JARAYON TO‘G‘RISIDAGI STANDART BAND

(2015 yilning 1- sentabridan amalda)

Xalqaro bitimlarni tuzayotganda, biz tomonlarga quyidagi arbitraj bandini kiritishni tavsiya qilamiz:

Ushbu shartnomaga oid va u bilan bog‘liq har qanday nizo, shuningdek uning mavjudligi, haqiqiyligi yoki tugatilishi to‘g‘risidagi har qanday masala Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi (SXAM) tomonidan boshqariladigan hakamlik sudiga murojaat qilish orqali ko‘rib chiqiladi va to‘lig‘icha hal etiladi, tegishli paytda amalda bo‘lgan Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi Reglamenti (SXAM Reglamenti) qoidalari havola orqali mazkur bandning qismi hisoblanadi.

Tomonlar roziligiga binoan, ushbu bandga asosan boshlangan arbitraj jarayoni SXAM reglamentining 5.2 qoidasida belgilangan Tezlashtirilgan Jarayon bo'yicha olib boriladi.

Arbitraj joyi [Singapur].*

Arbitraj tarkibi bir hakamdan iborat bo'ladi.

Arbitraj jarayoni tili _____ bo'ladi.

* Tomonlar o'zlari arbitraj uchun o'zlari tanlagan joyni belgilashlari kerak. Agar tomonlar Singapurdan boshqa joyni tanlashni ixtiyor qilsalar, "[Singapur]"ni o'zlari tanlagan shahar va mamlakatga o'zgartirishlari kerak (masalan, "[Shahar, Mamlakat]").

[yuqorida keltirilgan Amaldagi Qonunchilik to'g'risidagi Bandga qarang]

SXAM-SXMMning Arb-Med-Arb Protokoli (“AMA Protokoli”)

(2014 yil 5-noyabrdan amalda)

1. Mazkur AMA Protokoli Singapur Arb-Med-Arb Bandiga yoki unga o'xshash bandga (AMA Bandi) muvofiq Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi (SXAM)ga hal etish uchun topshirilgan barcha nizolarga va/yoki mazkur AMA Protokoliga asosan hal qilish uchun topshirilgan har qanday nizoga tadbiq etiladi. AMA Protokoliga muvofiq, tomonlar Singapur Xalqaro Mediatsiya Markazidagi vositachilik jarayonida hal qilingan har qanday nizo ularning arbitraj to'g'risidagi shartnomasi ta'sir doirasiga tushishiga rozi bo'ladilar.
2. AMA bandiga asosan arbitraj ishini boshlash niyatidagi tomon arbitraj muhokamasiga tadbiq etiladigan Arbitraj Reglamenti muvofiq SXAM Kotibiga arbitraj xabarini etkazadi; bunda Arbitraj Reglamenti yoki: (i) SXAM Arbitraj Reglamenti (o'sha paytda amal qiladigan tahrirda); yoki (i) YUNISTRAL Arbitraj Reglamenti (o'sha paytda amal qiladigan tahrirda) bo'lishi mumkin, agar tomonlar shunday arbitraj ishlarini SXAM boshqarishiga kelishib olgan bo'lsalar.
3. SXAM Kotibi SXMMni AMA bandiga muvofiq boshlangan arbitraj ishidan arbitraj boshlanganidan keyin 4 ish kuni ichida yoki tomonlar o'zlarining nizolarini AMA protokoliga asosan mediatsiya uchun topshirishga kelishib olganlaridan keyin 4 ish kuni ichida xabardor qiladi. SXAM SXMMga arbitraj ishi haqidagi xabarnomaning nusxasini jo'natadi.
4. Arbitraj tarkibi Arbitraj Reglamenti va/yoki tomonlarning arbitraj shartnomasiga muvofiq ravishda SXAM tomonidan tuziladi.
5. Arbitraj Xabarnomasi hamda Arbitraj Xabarnomasiga Javob xati almashilgandan so'ng, Arbitraj tarkibi Arbitraj jarayonini to'xtatib turadi hamda SXAM kotibini ish SXMMga mediatsiya uchun topshirilishi mumkinligidan xabardor qiladi. SXAM

Kotibi ko'rileyotgan ish materiallarini va tomonlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni SXMMga mediatsiya jarayoni uchun yuboradi. Ish materiallari SXMMda qabul qilinishi bilanoq, SXMM mediatsiya jarayoni boshlangani to'g'risida SXMM Mediatsiya Qoidalariiga muvofiq SXAM Kotibini xabardor qiladi ("Mediatsiya boshlangan sana"). Barcha keyingi bosqich harakatlari SXMMdagi mediatsiya jarayonini mobaynida to'xtatib turiladi.

6. SXMM boshchiligidagi o'tkaziladigan mediatsiya jarayoni Mediatsiya boshlangan sanadan 8 hafta ichida yakunlanadi, agar SXAM Kotibi SXMM bilan maslahatlashgan holda ushbu muddatni uzaytirmasa. Arbitraj jarayonidagi har qanday vaqt muddatini hisob-kitob qilish maqsadida, mediatsiya jarayoni ketayotgan vaqtda arbitraj vaqt muddati to'xtatib qo'yiladi va SXAM Kotibi Arbitraj hay'atini mediatsiya jarayoni tugallangani to'g'risida xabardor qilgandan so'ng, arbitraj vaqt muddati yana davom ettiriladi.
7. 8 haftalik muddat tugashi bilan (agar ushbu muddat SXAM Kotibi tomonidan uzaytirilmagan bo'lsa) yoxud nizoni mediatsiya orqali qisman yoki butunlay hal etishning iloji bo'lmasa, 8 haftalik muddat tugashidan oldin har qanday vaqtda SXMM kechiktirmasdan mediatsiya natijasi haqida (agar biror natija bor bo'lsa) SXAM kotibini xabardor qiladi
8. Agar nizoni mediatsiya orqali qisman yoki butunlay hal qilishning iloji bo'lmasa, SXAM kotibi arbitraj hay'atiga arbitraj jarayoni davom ettirilishi haqida xabar beradi. Hakamlar hay'atiga Kotibning xabari kelib tushgach, Arbitraj Reglamenti muvofiq nizo yoki (vaziyatdan kelib chiqqan holda) nizoning qolgan qismiga oid arbitraj jarayonlari davom ettiriladi.
9. Nizo tomonlar o'rtasidagi vositachilik, ya'ni, mediatsiya orqali hal qilinsa, SXMM kelishuvga erishilgani to'g'risida SXAM Kotibiga xabar beradi. Agar tomonlar hakamlar hay'atidan ushbu kelishuvni o'zaro kelishilgan arbitraj qarori sifatida rasmiylashtirilishini so'rashsa, tomonlar yoki SXAM Kotibi ushbu hal qilish kelishuvini hakamlar hay'atiga yo'naltiradi va hakamlar hay'ati tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan shartlar asosida arbitraj qarorini chiqarishi mumkin.

Moliyaviy masalalar

10. Mazkur AMA Protokolida ko'zda tutilgan barcha ishlar uchun, SXAMning SXMM Mediatsiya Reglamenti B-Ilovasiga ko'rsatib o'tilgan qaytarib berilmaydigan registratsiya haqini to'laydilar.
11. AMA bandiga muvofiq ish qo'zg' atilganda va tomonlar nizolarini arbitraj jarayonlari boshlanishidan oldin AMA Protokoli asosida hal qilish uchun topshirishga kelishib olgan bo'lsalar, ko'rsatilgan registratsiya haqi SXAMga arbitraj xabari topshirilayotganda to'lanadi. Boshqa hollarda, registratsiya haqining mediatsiya bilan bog'liq holda to'lanmay turgan qismi, ishni mediatsiya uchun SXMMga topshirganda SXAMga to'lanadi.
12. Tomonlar, shuningdek, talab qilingan hollarda arbitrajning taxminiy xarajatlari uchun (Arbitraj avansi) hamda mediatsiyaning administrativ to'lovleri va xarajatlari uchun (Mediatsiya avansi) SXAM va SXMMning tegishli Xarajatlar Nizomlari (qo'shma

holda “Depozitlar”)ga muvofiq avans (oldindan to’lov) to’laydilar. Depozitlarning hajmi SXMM bilan maslahatlashgan holda SXAM Kotibi tomonidan aniqlanadi.

13. AMA bandiga muvofiq ish qo’zg’atilganda va tomonlar nizolarini arbitraj jarayonlari boshlanishidan oldin AMA Protokoli asosida hal qilish uchun topshirishga kelishib olgan bo’lsalar, Mediatsiya avansi SXAM tomonidan talab qilinadigan Arbitraj avansi bilan birgalikda to’lanadi. Boshqa hollarda, Mediatsiya avansi ish mediatsiya uchun SXMMga oshirilganda to’lanadi.
14. Agar bir tomon o’ziga belgilangan ulushni to’lamasa, Arbitraj reglamentini buzmagan holda, har qanday tomon boshqa tomonning Depozitlarini to’lab berishga haqli. Agar depozitlar to’lig’icha yoki qisman to’lanmay qolsa, SXAM Kotibi SXMMni xabardor qiladi.
15. SXAM SXMMga Depozitlardan yoki SXAM tomonidan ushlab qolinadigan Arbitraj Avansidan Mediatsiya Avansini tomonlarga murojaat qilmasdan to’lash vakolatiga ega,

Singapur Arb-Med-Arb bandi (2015 yil 1-sentyabrda ko’rib chiqilgan)

Ushbu shartnomaga oid va u bilan bog’liq har qanday nizo, shuningdek uning mavjudligi, haqiqiyligi yoki tugatilishi to’g’risidagi har qanday masala Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi (SXAM) tomonidan boshqariladigan hakamlik sudiga murojaat qilish orqali ko’rib chiqiladi va to’lig’icha hal etiladi, tegishli paytda amalda bo’lgan Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi Reglamenti (SXAM Reglamenti) qoidalari havola orqali mazkur bandning qismi hisoblanadi.

Arbitraj joyi [Singapur].*

Arbitraj tarkibi _____ ** hakamlardan iborat bo’ladi.

Arbitraj jarayoni tili _____ bo’ladi.

Tomonlar, shuningdek, arbitraj ishi qo’zg’atilgandan so’ng, Nizoni Singapur Xalqaro Mediatsiya Markazi (SXMM)da mediatsiya orqali tegishli paytda amalda bo’lgan SXAM-SXMM Arb-Med-Arb Protokoliga muvofiq hal qilish uchun vijdonan yondashishga kelishishadi. Mediatsiya jarayonida erishilgan har qanday kelishuv SXAM tomonidan tayinlangan hakamlar hay’atiga yo’naltiriladi hamda tomonlar o’rtasida o’zaro kelishilgan shartlar asosida arbitraj qarori shaklida qaror chiqarishi mumkin.

* Tomonlar arbitraj uchun o’zlari tanlagan joyni belgilashlari kerak. Agar tomonlar Singapurdan boshqa joyni tanlashni ixtiyor qilsalar, “[Singapur]”ni o’zlari tanlagan shahar va mamlakatga o’zgartirishlari kerak (masalan, “[Shahar, Mamlakat]”).

** Toq sonni ko’rsatish kerak — bir yoki uch nafar.

TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH MA'LUMOT

1. To'lovlar mahalliy bank cheki orqali "*Singapore International Arbitration Centre*" (Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi)ga to'lanadigan qilib amalga oshirilishi mumkin. Barcha cheklar quyidagi manzilga yuborilishi shart:

Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi
Maksvel Road, 32
02-01
Singapur 069115
Buxgalteriyaga

2. To'lovlarni bizning bank hisob raqamimizga pul o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshirish mumkin (**iltimos, summangiz bank xizmatlari to'lovini o'z ichiga olgan bo'lsin**). To'lov detallari:

Foydalanuvchi nomi :	Singapur Xalqaro Arbitraj Markazi
Bank nomi :	United Overseas Bank Limited
Bank shaxobchasi :	Coleman Branch
Bank manzili :	1 Koulmen ko'chasi, #01-14 & B1-19, Adelfi, Singapur 179803 (1 Coleman Street, #01-14 & B1-19, The Adelphi, Singapore 179803)
Bank hisob raqami :	302-313-540-8
Swift kod :	UOVBSGSG

Pul o'tkazmalari identifikatsiyasini soddalashtirish maqsadida tomonlar to'lov hujjaligiga "Ish raqami – Da'vogar/Javobgar" detallarini kiritishi so'raladi. Depozitlarni kuzatib borishimizni osonlashtirish maqsadida, pul jo'natmalarini tasdiqlovchi hujjat nusxasini mablag'ni o'tkazgan zahotingiz kechiktirmasdan jo'natishingizni iltimos qilamiz. Esda tuting, SXAM to'lovlarni ishi ko'rيلayotgan tomonidan yoki uning qonuniy vakilidan qabul qiladi (masalan, tomonning huquqiy maslahatchisidan).

Bank o'tkazmalarini amalga oshirishdan avval, tomonlar SXAMdan amaldagi bank detallarini aniqlab olishlari tavsiya etiladi. Bundan tashqari, Singapur dollaridan boshqa valyutada to'lov o'tkazish holatlarida ham SXAMga murojaat qilib, aniqlik kiritish tavsiya etiladi.